

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



Namangan Davlat Universiteti

Filologiya fakulteti

4-kurs 401-guruh talabasi

USMONOVA SHAHNOZA ABDURASHITOVNAning

“Qutadg`u bilig” dostonida notiqlik san`ati

va nutq odobi masalalari”

mavzusida yozgan

BITIRUV
MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

O.Boltaboyeva

Namangan -2011

Annotatsiya

“Qutadg`u bilig” asarida notqlik san`ati va nutq odobi masalalari” mavzuidagi bitiruv-malakaviy ishda tadqiqotchi tomonidan asardagi notqlik san`ati va nutq odobi masalalarini atroflicha yoritishga harakat qilingan.

Shundan kelib chiqib, bitiruv-malakaviy ish jarayonida Yusuf Xos Hojibning hayot yo`li, adabiy merosi hamda “Qutadg`u bilig” dostoni va uning nusxalari haqida mukammal ma`lumot berilgan. “Qutadg`u bilig” dostonining axloqiy- didaktik doston ekanligini baytlar tahlili asosida izohlangan.

Yusuf Xos Hojibning nutq madaniyati va notqlik san`ati nazariyasiga qo`shgan munosib hissasi ilmiy tahlil etilgan. Dostondagi notqlik san`ati va xushmuomalilik haqidagi qarashlar ham ilmiy- badiiy tahlil etilgan. “Qutadg`u bilig” asari ilmiy tahlilining nutq madaniyati va notqlik san`atiga oid manbalar bilan aloqasi, o`xshash va farqli jihatlari qayd etilgan.

MUNDARIJA

Kirish.....	3-8
I-bob. "Qutadg`u bilig" - axloqiy -didaktik doston.....	9
1.1. "Qutadg`u bilig" asarining o`rganilish tarixi.....	9-14
1.2. "Qutadg`u bilig" dostonida sujet va g`oyaviy yo`nalish.....	15-23
II-bob. Yusuf Xos Hojibning nutq madaniyati va notqlik san`ati nazariyasiga qo`shgan hissasi.....	24
2.1. Dostonda notqlik san`ati va xushmuomalilik xususidagi qarashlar.....	24-28
2.2. "Til odobi" bobida nutq madaniyati haqida.....	29-34
III-bob. Nutq odobi masalasini yoritishda adib mahorati.....	35
3.1. Ijtimoiy guruh vakillarining o`zaro munosabati vositasida nutq odobi masalasining yoritilishi.....	35-41
3.2. "Qutadg`u bilig" asari ilmiy tahlilining nutq madaniyati va notqlik san`atiga oid manbalar bilan aloqasi, o`xshash va farqli jihatlari.....	42-50
Umumiy xulosalar.....	51-53
Foyadalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	54-56

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi.

Buyuk istiqlool sharofati bilan biz o'z milliy qadriyatlarimizni xolis o'rganish, bobokalonlarimiz yaratgan o'lmas asarlarning jahon adabiyotidagi mustahkam o'rni to'g'risida baralla gapirish va tadqiqotlar yaratish imkoniyatiga ega bo'ldik. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqdi. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan..."¹

Prezidentimiz mustaqillik sharofati bilan biz bosib o'tgan davrni sarhisob qilib, quyidagicha fikr bildirdilar: "Bugun mustaqil taraqqiyot yillarida boshimizdan o'tgan, oson kechmagan yillarimizni, amalga oshirgan ishlarimizni, erishgan yutuq va marralarimizni sarhisob qilar ekanmiz, hech shubhasiz, xolisona bir xulosaga kelishimiz tabiiydir. Ya'ni, bundan o'n to'qqiz yil oldin yurtimizda erkin va mustaqil demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish, iqtisodiyotimizni keskin va chuqur isloh etish, aholimiz manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish bo'yicha qabul qilgan azmu qarorimiz yakka-yu yagona to'g'ri ekanini bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda. Buning isbotini, avvalo, shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zi va oilasi, yaqinlari misolida, shahar va qishloqlarimiz, butun mamlakatimizning har tomonlama rivojlanib, obod bo'lib borayotgani misolida yaqqol ko'rish mumkin. Buning tasdig'i sifatida hali-beri davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siriga qaramasdan, O'zbekiston dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy o'sishning yuqori va barqaror sur'atlarini namoyon etmoqda"².

Mustaqil O'zbekistonimiz yoshlari uchun bugungi kunda qulay sharoitlar eshigi ochildi. Hurmatli prezidentimiz bu haqida juda ko'p ma'ruzalarida ta'kidlab o'tganlar. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi farmoni muhim qadam bo'ldi. Shular qatorida bitiruvchilarga o'z biznesini tashkil etishi uchun imtiyozli kreditlar berish bo'yicha banklarimiz tomonidan amalga oshirilgan ishlar ham e'tiborga sazovordir. "Yana bir muhim masalani qayd etib o'tmoqchiman,-deb fikr bildirgan Prezidentimiz,- hozirgi keskin raqobat sharoitida innovatsion texnologiyalar va ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega",-deb takidlaydilar.³

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng umrini o'tab bo'lgan mustabid, ma'muriy- buyruqbozlik, rejali taqsimot tizimidan voz kechib, "O'zbek modeli" deb nom olgan o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Ushbu modelning ma'no- mazmuni- davlat qurulishi va konstitutsiyaviy tuzumni tubdan o'zgartirish va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan holi etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya'ni islohotlar tashabbuskori bo'lishi va ularni muvofiqlashtirib borishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil olib borish tamoyillariga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdan iboratdir. Tadrijiy taraqqiyot yo'lini tanlab olganimiz tufayli xalqimizni og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy to'fonlardan asrab qolishga muvaffaq bo'lganimizni bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda.⁴

Al Xorazmiy matematikada, Al Farobiy falsafada, Abu Rayhon Beruniy geografiya, ma'danshunoslik va astraronomiyada, Ibn Sino tabobatda, Mahmud Qoshg'ariy turkiy tillar lahjalarini to'plashda, Imom Al Buxoriy, Imom At Termiziy va Imom Moturidiylar hadis va fiqh

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent: Sharq. 1998. 3-bet.

² Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. / O'zbekiston ovozi/ 2010. 1-sentabr

³ Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omilidir. / Ishonch / 2010. 8-dekabr.

⁴ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. Toshkent: O'zbekiston. 2010. 5-bet.

ilmida, Ahmad Yassaviy tasavvuf ilmida, Mirzo Ulugbek falakkiyot sohasida, Alisher Navoiy til va adabiyotda, Zahiriddin Bobur tarix, adabiyot va siyosatda olib borgan ishlari bilan Markaziy Osiyo Buyuk Uyg'onish davri taraqqiyotida muhim o'rin egalladilar va ularning dovrug'i butun olamga taraldi. Ulug' bobokalonlarimizning biz yuqorida ajratib ko'rsatgan sohalarini ayni paytda ularning har biriga nisbatan ham aytish mumkin. Chunki, ularning har biri qomusiy olim va ayni paytda iste'dodli shoir ham edilar. Ana shu ulug' siymolar qatorida ilk turkiy doston muallifi Yusuf Xos Hojibning ham alohida o'rni bor. Uning "Qutadg'u bilig" (Saodatga eltuvchi bilim) asari bugungi kunda butun dunyodagi turkiy xalqlar tili va adabiyotida sarchashma vazifasini o'tamoqda. Qadimgi obidaning qora harflar bilan bitilgan bitiglari zamonamizning yorug' kunlari uchun xizmat qilmoqda. Ushbu pandnomaning jahoniy qudratini aniqlash tadqiqotchilar oldiga dolzarb vazifalar qo'ymoqda. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining hozirgi o'zbekcha tabdili (Q.Karimov), olmoncha (V.Radlov) va inglizcha (R.Denkoff) tarjimalari qiyosiy- tipologik tahlil etilgan. Unday tahlillarda asardagi uslub, tarixiy o'ziga xoslik hamda adabiy-lisoniy jihatlar tarjimasining asliyatga muqobillik darajasi ko'rsatilib, bunda tarjimon mahoratini yoritishga harakat qilingan. Shuningdek, "Qutadg'u bilig"ning tarjima vositasida jahon adabiy jarayoniga kirib borishi hamda Sharq G'arb adabiyotida an'anaga aylangan "Shohlar oynasi" adabiy janri taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shganligi diqqatga sazovordir. Yusuf Xos Hojib Sharq uyg'onish davrining buyuk siymolaridan biri hisoblanadi. Zeroki, u o'zining "Qutadg'u bilig" asarida davrining juda ko'p ijtimoiy –siyosiy, falsafiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy- ma'rifiy, irfoniy masalalarini yuksak badiiylikda tasvirlagan. Davlatni boshqarish, ijtimoiy adolat, ijtimoiy tabaqalararo munosabat nizomlarini badiiy aks ettirgan mutafakkirdir. Shuning uchun ham bu asar o'rta asrlardayoq butun Sharqda bir "dasturul muluk" sifatida e'tirof etilgan. Dunyo ma'daniy- ma'rifiy yo'nalishida bitilgan ushbu asar ilmiy nuqtai nazardan o'rganilishga mushtoq. Bu bitiruv- malakaviy ishning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv- malakaviy ish mavzusining o'rganilish darajasi.

"Qutadg'u bilig"ning uch qo'lyozma nusxasi bizgacha yetib kelgan. Ulardan biri uyg'ur yozuvida ko'chirilgan bo'lib, Venada saqlanadi. Arab yozuvidagi ikki qo'lyozmadan biri Qohirada, ikkinchisi Toshkentda saqlanmoqda. "Qutadg'u bilig"ning qo'lyozmalarini o'rganish, matnini nashrga tayyorlash sohasida Hammer Purgstall, Jauberg Amedi, Herman Vamberi, R.Arat, V.Radlov, S.Malov, O.Valitova singari sharqshunos olimlar qimmatli ilmiy tadqiqotlar yaratdilar. O'zbekistonda "Qutadg'u bilig"ga oid ilk ishlarni professor A.Fitrat boshlab berdi. Olim uning ayrim parchalarini "O'zbek adabiyoti namunalari" (1926) kitobida nashr ettirdi. S.Mutallibov, G'.Abdurahmonov, N.Mallayevlar ham A.Fitrat an'anasini davom ettirdilar. 1971 yilda "Qutadg'u bilig"ni transkripsiya va hozirgi o'zbek tiliga tabdili bilan Q. Karimov nashr qildirdi. Shuningdek, asarni hozirgi o'zbek tilida (nazm-u nasrda) bayon qilib, bolalarbop qisqartirilgan nashrini (Toshkent, "Yulduzcha" 1991) prof. B.To'qliyev amalga oshirdi. Yana "O'zbek adabiyoti bo'stoni" turkumida "Qadimiy hikmatlar" kitobi tarkibida "Qutadg'u bilig"ning kattagina qismi (G'. Gulom nomidagi ASN, Toshkent, 1987, 89-413-betlar) nasriy bayonda o'quvchilarga taqdim etildi. Bu dostonni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish hamda nashr qilish ishlari davom ettirilmoqda. Jumladan, Zohidjon Sodiqovning "Qutadg'u bilig tarjimalarining qiyosiy- tipologik tahlili" asarida ham ilmiy nazariy fikrlar jamlangan, qiyoslangan. R.J Vohidov, N.R Eshonqulovlar tomonidan tayyorlangan o'quv- qo'llanmalarda ham Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining g'oyaviy yo'nalishi, mazmuni aks etgan. Bizning ushbu bitiruv- malakaviy ishimizda esa asardagi nutq odobi,notiqlik san'ati haqidagi adib qarashlari tahlil doirasiga tortildi. Bu borada adibning badiiy mahorati ham tahlil etildi.

Bitiruv –malakaviy ishning maqsad va vazifasi:

Ushbu bitiruv –malakaviy ishda Yusuf Xos Hojib ijodini puxta o'rganish, adib salohiyati va san'atkorlik mahoratini xolis baholash, "Qutadg'u bilig" asarining shakl va mazmuniga haqqoniy va ilmiy asosda baho berish, asarning o'ziga xos g'oyaviy mazmunini yoritish, asardagi axloqiy- ta'limiy qarashlarni izohlash, Yusuf Xos Hojibning nutq madaniyati va notiqlik san'ati nazariyasiga qo'shgan hissasini belgilash maqsadida quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

1. Yusuf Xos Hojibning hayot yo`li, adabiy merosi haqida ma`lumot berish.
2. “Qutadg`u bilig” dostoni va uning nusxalari haqida ma`lumot berish.
3. “Qutadg`u bilig” dostonining axloqiy- didaktik doston ekanligini baytlar tahlili asosida izohlash.
4. Yusuf Xos Hojibning nutq madaniyati va notiqlik san`ati nazariyasiga qo`shgan munosib hissasini ilmiy tahlil etish.
5. Dostondagi notiqlik san`ati va xushmuomalilik haqidagi qarashlarni ilmiy- badiiy tahlil etish.
6. “Qutadg`u bilig” asari ilmiy tahlilining nutq madaniyati va notiqlik san`atiga oid manbalar bilan aloqasi, o`xshash va farqli jihatlarini izohlash.

Bitiruv –malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati:

Bitiruv –malakaviy ishning nazariy ahamiyati shundaki, o`zbek adabiyoti tarixini yoritishda, xalqimizni adib ijodi bilan yanada yaxshiroq tanishtirishda, nutq madaniyati va notiqlik san`ati bo`yicha nazariy ma`lumotlarni egallashda bu ilmiy ishdan foydalanish mumkun.

Bitiruv –malakaviy ishning amaliy ahamiyati shundaki, o`zbek mumtoz adabiyoti tarixiga oid darslik va o`quv qo`llanma yaratish, oliy o`quv yurtlari filologiya fakultetlarida Yusuf Xos Hojib ijodi bo`yicha o`qiladigan maxsus kurslar uchun ma`ruza matni tayyorlashda; Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi bo`yicha kurs ishi va referat tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Bitiruv –malakaviy ishning tadqiqot metodi:

Bitiruv – malakaviy ishning har bir tahlil yo`nalishida Yusuf Xos Hojib ijodiga ilmiy jihatdan xolis yondashishga harakat qilindi. Yusuf Xos Hojibning notiqlik san`ati va nutq odobi masalalari haqidagi qarashlari qiyosiy va badiiy estetik, tavsifiy tahlil usullari asosida amalga oshirildi.

Bitiruv –malakaviy ishning manbai:

Bitiruv –malakaviy ish uchun 1971-yilda Qayum Karimov so`zboshisi bilan “Fan” nashriyotida nashrdan chiqqan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” (Saodatga yo`llovchi bilim) asari hamda 1990-yilda Boqijon To`xliyev so`zboshisi bilan “Yulduzcha” nashriyotida nashrdan chiqqan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” (Saodatga yo`llovchi bilim) asari asosiy manbaa sifatida o`rganildi. Shuningdek bitiruv- malakaviy ishni ilmiy tahlil etishda N.Mahmudov, A.Hojiahmedov, S.Inomxo`jayev, Z.Sodiqov, A. Ortiqovlarning ilmiy-nazariy fikrlariga suyanildi.

Bitiruv- malakaviy ishning tuzilishi:

Bitiruv- malakaviy ish kirish, III bob, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB. “QUTADG’U BILIG” – AXLOQIY -DIDAKTIK DOSTON

1.1. “Qutadg’u bilig” asarining o’rganilish tarixi

Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlar adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, ulug’ mutafakkir shoir va davlat arbobidir. Shoir qalamiga mansub «Qutadg’u bilig» dostoni turkiy yozma badiiy adabiyotning ilk yirik namunasi bo’lib, Yusuf Xos Hojibdan bizgacha yetib kelgan yagona adabiy meros sanaladi. Unda o’z davrining yetuk donishmandi, taraqqiyparvar ziyolisi bo’lgan ijodkorning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy, falsafiy-irfoniy qarashlari majmuasi o’ziga xos uslubda badiiy ifodalangan.

Yusuf Xos Hojib hayoti va faoliyati haqida juda oz ma’lumot saqlanib qolgan. Aniqrog’i, uning hayot yo’li to’g’risida muallifning o’z asari “Qutadg’u bilig” (Saodatga yo’llovchi bilim) dagi ayrim ishoralar asosida ma’lum tasavvurlar hosil qilish imkoniyatiga egamiz. Muallifning ismi Yusuf. Muallifning ismi Yusuf ekanligi va boshqa ma’lumotlarni shu asarning o’zidagina olamiz: “Kitab izisi Yusuf ulug’ Hajib o’zinga pand berur, Yusuf Xas Hajib teb ati javi yazilmish.” Asar mazmunidan ma’lum bo’lishicha, Yusuf Balasog’unda tug’ilgan, ma’lumotli o’z davrining butun ilmlaridan boxabar bo’lgan.¹

Shoir qoraxoniylarning yirik madaniy markazlaridan va poytaxt shaharlaridan biri Bolosog’un (Quz O’rdu)da tug’ilgan. Dostonning muqaddimasida adib o’zi dunyoga kelgan yurtini quyidagicha tasvirlaydi:

**Munuqi tarug’laq qut urdi eli,
Tub-asli, nasabdin yuramish tili.**

Mazmuni:

**Buning tug’ilgan eli Quz O’rdudir,
Tub-asli, nasl-nasabidan tili so’z ochdi.²**

Shoir dostonni yozgan paytida yoshi ellikdan oltmishga tomon borayotganini qayd etadi:
**Tegurdi manga ellik yashim,
O’qir oltmish emdi manga kel teyu.³**

Asarda “Qutadg’u bilig”ning yozilish tarixi haqida keltirilgan ishoralar Yusuf Xos Hojibning tug’ilgan yilini aniqlash imkonini beradi. Shoir dostonida bu haqida quyidagi satrlarni bitib qoldirgan:

**Yil altmish eki erdi to’rt yuz bila,
Bu so’z so’zladim man tutib jan sura.**

**Tugal o’n sakkiz oyda aydim bu so’z,
O’durdum, adirdim, so’z evdib tera.⁴**

¹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg’u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 8-bet.

² Yusuf Xos Hojib. Qutadg’u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 56-57 -betlar.

³ Yusuf Xos Hojib. Qutadg’u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 56 –bet.

⁴ Vohidov R.J., Eshonqulov N.R. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. 1-qism. Toshkent: O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi. 2006. 68-bet.

Keltirilgan iqtibosdan ma'lum bo'lishicha, adib «Qutadg'u bilig»ni hijriy 462 (1069-1070) yilda yozib tugatgan. Asarni yozish uchun bir yarim yil vaqt sarflangan. Shoir dostonni yozishga kirishganda yoshi ellikda ekanligini nazarda tutsak, uning hijriy 410 (1019) yilda tug'ilganligi ma'lum bo'ladi. Muallif «Qutadg'u bilig» dostonining, Bolosog'unda yoza boshlagani, uni Qashqarda nihoyasiga yctkazganligini ham eslatib o'tadi.

Yusuf Xos Hojib o'z asarini qoraxoniylar hukmdorlaridan Tavg'ach Bug'roxon (Tavg'ach ulug' Bug'ro qoraxon Abo Ali Hasan binni Arslonxon)ga taqdim etadi. Hukmdor shoir mehnatini yuksak qadrlab, unga “Xos Hojib” (muqarrub, eshik og'asi) unvonini beradi. Shundan keyin u Yusuf Xos Hojib nomi bilan taniladi.

O'z davrining peshqadam donishmandlaridan biri bo'lib yetishgan Yusuf Xos Hojib fors-tojik, arab tillarini, badiiy adabiyot, tarix, falakkiyot, geometriya, matematika, tibbiyot, geografiya kabi fanlarni chuqur o'zlashtirgan. Muallifdagi ana o'sha bilimdonlik dostonida yorqin izlarini qoldirgan. Jumladan, u dostonida zamonasining buyuk olimlarining axloqiy-falsafiy qarashlari, tib ilmiga doir noyob mulohazalarni targ'ib qiladi, zamondoshlarini aniq fanlarni o'rganishga da'vat etadi. “Qutadg'u bilig” dostoni qoraxoniylar hukmronligi davrining ma'naviy-ma'rifiy talabi, ehtiyoji sifatida vujudga keldi.

Ma'lumki, Qashqardan Amudaryogacha bo'lgan hududni qamrab olgan qoraxoniylar mamlakati markazlashgan yagona hokimiyatga ega emas edi. U bir necha mayda hokimliklarga bo'linib ketgan edi. Bular orasida poytaxti Qashqar bo'lgan Sharqiy Turkiston, yana biri poytaxti Bolosog'un bo'lgan Yettisuv, keyinchalik Movarounnahr istilo qilingandan so'ng poytaxti avval O'zgand, keyinroq Samarqand bo'lgan Movarounnahr dastlabki yirik hokimliklardan edi. Bular yana bir qancha mayda hokimliklarga ham bo'lingan. Qoraxoniylar sulolasining bosh hukmdori «tavg'achxon» yoki «tabg'achxon», hokimliklar boshliqlari esa «ilekxon» deb atalar edi. Ilekxonlar tavg'achxonga rasman qaram bo'lib, ular o'z hududlarini kengaytirish, rasmiy qaramlikdan qutilishga harakat qilar edilar. Shuning natijasida o'zaro toj-taxt kurashlari avj olar, mamlakat bundan katta talofot ko'rar edi. Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig” dostonini yozar ekan, avvalo, markazlashgan davlatni barpo etish, tavg'achxon va Ilekxonlar o'rtasidagi ixtiloflarni tugatish g'oyasini badiiy ifodalashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Shu bois adib didaktik mazmunga ega bo'lgan bu asarda davlatni idora qilish usullari, jamiyatdagi turli toifa, tabaqa, ijtimoiy guruh vakillarining, jumladan, tavg'achxon, Ilekxonlarning fe'l-atvori, davlat qurilishi, ijtimoiy tabaqa vakillarining jamiyatdagi o'rni kabi siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ta'limiy masalalarni yoritishga alohida ahamiyat beradi. “Qutadg'u bilig”ning bu xususiyatlari uni nizomnoma, siyosatnoma maqomidagi bir asar darajasiga ko'taradi. Yusuf Xos Hojib bu asarni yozishdan maqsad xalq oldidagi yana bir burchni ado etish ekanligini dostonning muqaddimasida quyidagicha qayd etadi:

Arabcha, tojikche kitoblar o'kush,

Bizin tilimizche bu yung'i uqush.

Mazmuni:

Arabcha, tojikcha bunday kitoblar talaydir,

Bizning tilimizda esa bu jamlangan zakovatdir.⁵

Shoir o'rinni e'tirof etganidek, arabcha, tojikcha kitoblar ko'p bo'lib, bizning tilimizda mazkur kitob donishmandlikning ilk namunasi edi. «Qutadg'u bilig» dostoni o'z davrida keng shuhrat qozongan, turkiy tildagi eng yaxshi asar sifatida baholangan. Mazkur pandnomaning turli joylarda turlicha nomlar bilan atalganligini muallifning o'zi asar muqaddimasida faxr bilan ta'kidlaydi. Bu kitobni chinliklar “Adabul-mulk” (Hukmdorlar odobi), mochinliklar (sharqiy turkistonliklar) “Oyinul-mamlakat” (Mamlakatning tartib usuli), Sharq elining kattalari “Ziynatul- umaro” (“Amirlar ziynati”), eronliklar “Shohnomai turkiy” ba'zilar “Pandnomai muluk” (Hukmdorlar nasihatnomasi), turonliklar esa “Qutadg'u bilig” deb nomlaganlar.

Mana shunday qimmatli asar mavjudligi haqidagi dastlabki xabar XIX- asrning birinchi choragida paydo bo'ldi. Bu asarning hijriy 843 (1439) yilda Hirotida uyg'ur yozuvi bilan Hasan

⁵ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 58-59 –betlar.

Qara Sayil Shams tomonidan ko'chirilgan nusxasi Turkiyaning Tugot shahriga, bu yerdan esa hijriy 879 (1474) yilda Abdurazzoq Shayxzoda baxshi uchun Fanari o'g'li Kadi Ali tomonidan Istambulga keltirilgan. Uni mashhur tarixchi va sharqshunos Xammer Purgstall Istambulda sotib olib, Vena saroy kutubxonasiga keltiradi. Shundan so'ng bu asar haqidagi birinchi xabar va uning ba'zi namunalari 1823-yilda fransuz sharqshunosi Jaubert Amedee tomonidan nashr etilgan.

1870-yilda esa venger olimi Vamberi "Qutadg'u bilig"ning eng muhim qismlarini "Uyg'ur tili obidalari" va "Qutadg'u bilig" nomi bilan nashr qildi va nemis tilidagi tarjimasini berdi. 1890-yildan boshlab esa bu asarni mashhur rus sharqshunos olimi Radlov tekshira boshladi. 1896-yilda kitobning arab yozuvi bilan ko'chirilgan ikkinchi nusxasi Qohirada topildi. 1890-yilda Radlov uyg'ur yozuvi bilan ko'chirilgan Vena nusxasining faksimilesini, 1891-yilda shu faksimilesining tekstini manjur yozuvi bilan nashr qildirgan edi. Qohira nusxasidan ko'chirma olgach, u ikki nusxani solishtirish imkoniyatiga ega bo'ldi va 1910-yilda "Qutadg'u bilig"ning transkripsiyasi bilan nemis tiliga qilingan mukammal tarjimasini nashr ettirdi. Nihoyat "Qutadg'u bilig"ning arab yozuvi bilan ko'chirilgan uchinchi nusxasi haqidagi dastlabki malumot 1914-yilda e'lon qilindi. Sharqshunos olim Valizoda 1913-yilning kuzida o'z shaxsiy ishi bilan Qo'qonga safarga o'tlanadi va mazkur safarida Qozon universiteti qoshidagi arxeologiya, tarix va etnografiya jamiyati tomonidan Sharq qo'lyozmalari haqida ma'lumot to'plash topshirig'ini oladi. U 1914-yil 20- aprelda Farg'ona ekspeditsiyasi haqida mazkur jamiyatga qilgan hisobot ma'ruzasida namanganlik Muhammadhoji Eshon Lolaresh ismli kishining shaxsiy kutubxonasida "Qutadg'u bilig"ning arab alifbesi bilan yozilgan nusxasi mavjud ekanligi haqidagi xabarni aytgan. Bu esa "Qutadg'u bilig"ning Namangan nusxasi haqidagi dastlabki ma'lumot edi. Bu xabar e'lon qilinganidan so'ng o'zbek olimi Fitrat 1924-yilda Muhammadhoji Eshon Lolareshdan mazkur nusxani olishga miyassar bo'ladi va shu yilning o'zidayoq bu nusxani Toshkent asosiy kutubxonasiga keltiradi.⁶ Oradan bir yil o'tgach, "Maorif va o'qituvchi" jurnalida "Qutadg'u bilig"ning Namangan nusxasi haqida Fitratning maqolasi bosilib chiqadi. 1928-yilda esa u bu asarning ayrim parchalarini izohlar bilan nashr qiladi. Umuman, "Qutadg'u bilig" turkshunos olimlarning diqqatlarini o'ziga jalb qilgan edi. Jumladan, bu asarning til xususiyatlari, vazn va qofiya usullari, til va fonetik sutrukturasi haqida ilmiy ishlar qilingan.

"Qutadg'u bilig"ni o'rganishda A.A.Valitovanning ilmiy ishlari diqqatga sazovordir. Birinchi bo'lib bu asarni boy bir tarixiy manbaa sifatida o'rganish ishini boshlab bergan A.A.Valitova bu sohada beqiyos yutuqlarni qo'lga kiritgan. A.A.Valitovanning tekshirishlari turkshunoslikka qo'shilgan katta hissadir. "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi"da "Qutadg'u bilig"ning ayrim parchalari va lug'atlarining berilishi bugungi kunda bu asarni o'rganishda yana ilgariga qarab qo'yilgan dadil qadam hisoblanadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, "Qutadg'u bilig" haqida qanchalik ko'p ilmiy ishlar qilingan bo'lishiga qaramay hali turli masalalar sohasida ko'pgina ilmiy izlanishlar qilish mumkin.

"Qutadg'u bilig"ning uch qo'lyozma nusxasi bizgacha yetib kelgan. Ulardan biri uyg'ur yozuvida ko'chirilgan bo'lib, Venada saqlanadi. Arab yozuvidagi ikki qo'lyozmadan biri Qohirada, ikkinchisi Toshkentda saqlanmoqda. "Qutadg'u bilig"ning qo'lyozmalarini o'rganish, matnini nashrga tayyorlash sohasida Hammer Purgstall, Jauberg Amedi, Herman Vamberi, R.Arat, V.Radlov, S.Malov, O.Valitova singari sharqshunos olimlar qimmatli ilmiy tadqiqotlar yaratdilar. O'zbekistonda "Qutadg'u bilig"ga oid ilk ishlarni professor A.Fitrat boshlab berdi. Olim uning ayrim parchalarini "O'zbek adabiyoti namunalari" (1926) kitobida nashr ettirdi. S.Mutallibov, G'.Abdurahmonov, N.Mallayevlar ham A.Fitrat an'anasini davom ettirdilar. 1971 yilda «Qutadg'u bilig»ni transkripsiya va hozirgi o'zbek tiliga tabdili bilan Q. Karimov nashr qildirdi. Shuningdek, asarni hozirgi o'zbek tilida (nazm-u nasrda) bayon qilib, bolalarbop qisqartirilgan nashrini (Toshkent, "Yulduzcha" 1991) prof. B.To'qliyev amalga oshirdi. Yana

⁶ Vohidov R.J., Eshonqulov N.R. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. 1-qism. Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. 2006. 70-bet.

“O'zbek adabiyoti bo'stoni” turkumida “Qadimiy hikmatlar” kitobi tarkibida “Qutadg'u bilig”ning kattagina qismi (G'. G'ulom nomidagi ASN, Toshkent, 1987, 89-413-betlar) nasriy bayonda o'quvchilarga taqdim etildi. Bu dostonni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish hamda nashr ishlari davom ettirilmoqda.

1.2. “Qutadg'u bilig” dostonida sujet va g'oyaviy yo'nalish

“Qutadg'u bilig”ning asliyatini nasriy muqaddima bilan boshlanadi. Unda dostonning to'rtta yetakchi qahramonlari haqida mu'lumot beriladi. Ular: Kuntug'di, Elig-hukmdor, adolat ramzi; Oyto'ldi-vazir, davlat ramzi; O'gdulmish-vazirning o'g'li (keyinchalik vazir) -aql ramzi va nihoyat O'zg'urmish-qarindosh, zohid ofiyat (qanoat) ramzidir. Doston ana shu qahramonlar o'rtasidagi munozara, savol-javob tarzida yozilgan.⁷ “Qutadg'u bilig”ning hajmi (Namangan nusxasida) 6500 bayt (o'n uch ming misra)ga yaqin bo'lib, 73 fasl- bobdan tashkil topgan. Uning dastlabki fasli an'anaviy muqaddima boblaridan iborat. Bularda Alloh hamdi, Muhammad alayhis-salomga bag'ishlangan na't, to'rt xalifa ta'rifi keltirilgan. Shuningdek, yoz tavsifi, Bug'raxo'n madhi, yetti sayyora va o'n ikki burj, til odobi, ilmning foydasi kabi masalalar tasviri ham muqaddimadan o'rin olgan. Dostonning bevosita Alloh hamdi bilan boshlanishini inobatga olsak, dostonning nasriy muqaddimasi ham asar sujeti va unda ilgari surilgan yetakchi g'oyalarni o'quvchiga to'la yetkazish yo'lida xizmat qilganini sezish mumkin. “Qutadg'u bilig”ning muqaddimaviy fasllari orasida “Yetti kavokib va o'n ikki burj” deb nomlangan bob alohida ahamiyatga ega. Uning dastlabki satrlarida Allohning buyuk yaratuvchanlik sifati ulug'lanadi:

**Bayat ati birle sezug bashladim,
Torutgen igidgen kechurgen idim.**

**Torutti tilek-teg tuzu alamig',
Yarutti ajunqa kunug ham ayig`.**

**Yaratti ko'p, evren tuchi evrulur,
Anin birle tezginch yema tezginur.⁸**

**Mazmuni:
Xudo nomi bilan so'zni boshladim,
Yaratgan, parvarishlagan, kechirgan egamdird.**

**Butun olamni o'z istagicha yaratti,
Olamda kun ham oyni yoritti.**

⁷ Vohidov R.J., Eshonqulov N.R. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. 1-qism. Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. 2006. 70-bet.

⁸ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 80-bet.

**Falakni yaratti, ko'r, doim aylanadi,
U bilan birga charx ham aylanadi.⁹**

Yusuf Xos Hojib ushbu misralarni bitishda Qur'oni karim va o'zi yashagan davrning ilm-fani yutuqlariga tayanadi. Ushbu satrlar uchun qur'oniy g'oyalar ma'naviy asos vazifasini o'taganligini «Yosin» surasidagi 40-oyati karimani keltirish bilan tasdiqlash mumkin. Unda shunday deyiladi: «Na quyosh uchun Oyga yetish mumkin bo'lur va na kecha kunduzdan o'zguchidir. (Quyosh, Oy va yulduzlarning) barchalari falakda suzib yurur»¹⁰. «Qutadg'u bilig» falakiyot ilmi yutuqlariga tayanib, olamning tuzilishiga doir mulohazalarni maxsus bobda ifoda etgan ilk turkiy dostonidir. Mazkur bobda Yusuf Xos Hojib o'n ikki burjni yetti sayyoradan ajratib ko'rsatadi hamda ularning ayrimlari juft-juft, ayrimlari esa toq ekanligini qayd etadi. Muallifning shahodaticha, ularning uchasi-bahorgi, uchasi -yozgi, uchasi-kuzgi va nihoyat uchasi-qishki yulduzlardir. Dunyo to'rt unsuridan tashkil topgani singari yulduzlarning ham uchasi-olov, uchasi-suv, uchasi-shamol va uchasi- tuproq bilan aloqador holda badiiy tasvirni topadi. Falakiyot ilmidan puxta xabardor bo'lmay turib, bunday mushohada yuritish qiyin edi.

O'z davrining ilm-fani yutuqlarini g'oyatda chuqur mulohaza-yu mushohadalari bilan teran o'rgangan va ularning mohiyatini nihoyatda yaxshi idrok etgan shoir «Qutadg'ubilig»da dunyodagi jami ezgu ishlar iml tufayli ekanligini qayd etadi. Dostonda zamondoshlarini ilm-ma'rifat o'rganishga da'vat etish g'oyasi yetakchilik qiladi. Asarning muqaddimaviy boblari, ayniqsa, «Yeti kavokib va o'n ikki burj»da shoir nujum ilmi yutuqlaridan mahorat bilan foydalanadi. Bu bilan ijodkor olamning' tuzilishi haqidagi falsafiy qarashlarini ilm-fan yutuqlari asosida o'quvchiga yetkazish bilan kitobxon qalbida borliq sir-u sinoatlarini o'rganishga muhabbat tuyg'usini paydo etadi. Uning yaralish va Yaratuvchi haqiadgi mushohadalarining tayanch g'oyaviy manbai ilohiy kitob-Qur'oni karim bo'lib, olamning tuzilishi haqidagi muallifning aqidalari mashhur qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy talimoti bilan uyg'undir¹¹.

Yusuf Xos Hojib butun olamni o'z istagicha yaratgan Alloh quyosh va oyni yorug' qilgani, falakning doimiy aylanishi, koinot Xoliqining yashil osmon ustida yulduzlarni paydo etgani, ularning bir toifasi bezak bo'lsa, yana bir turkumi rahnamo, bir qanchasi esa yo'lni yo'qotganda yo'lchi bo'lishi, olam u yetti qat osmondan tarkib topgani singari islomiy- ilmiy qarashlarni qorishiq badiiy aks ettiradi. Shuningdek, shoir geotsentrik nazariyani (Yer markazda, uning atrofidagi sayyoralar harakatini) o'z asarida badiiylashtirgan. Uning fikricha, Yer markazda uning atrofidan Sekantir (Zuhal-Saturn), Ung'ay (Mushtariy-Yupiter), Kurud (Mirrix-Mars), Yashiq (Quyosh), Savit (Zuhra-Venera), Orzu (Utorid-Merkuriy), Yalchiq (Oy) kabi sayyoralar aylanib turadi. Sekantir eng yuksaklikdagi sayyora bo'lib, u-yettinchi, Ung'ay-oltinchi, Kurud-beshinchi, Yashiq-to'rtinchi, Savit-uchinchi, Orzu-ikkinchi, Oy esa-birinchi falakda joylashgan. Yettinchi samodan yuqorida esa sobit turuvchi yulduzlar turkumi-burjlar bor. Shoir ularni quyidagi nomlar bilan ataydi: Qo'zi (Hamal), Ud (Savr), Erondiz (Javzo), Quchiq (Saraton), Bug'doyboshi (Sunbula), Ulgu (Mezon), Chazan (Aqrab), Yoy (Qavs), Ko'nak (Dalv), Baliq (Hut). Kitobxonni ilm-ma'rifatga undovchi ana shunday mulohazalar bilan oshno etgan shoir bularaning barchasi bilim, aql va idrok kamoloti tufayli ekanligini e'tirof et quyidagi bayt bilan mazkur bobni tugatadi:

Basa ayilim emdi munu yanluqug`

Ag'irlig boldi bilig og uqug`.¹²

Mazmuni:

Ushbu yanglig` (narsalar) haqida ko`p gapirdim,

⁹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 81 –bet.

¹⁰ Kur'oni Karim. Toshkent: Movarounnahr. 1992. 406-bet.

¹¹ Vohidov R.J., Eshonqulov N.R. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. 1-qism. Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. 2006. 80-bet.

¹² Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 82 –bet.

Bu bilim, aql va idrok karomati tufayli edi.¹³

Dostonda olim va donishmand kishilarni saroyga da'vat etish g'oyasi singdirib boriladiki, bu ham ijodkorning ilm-ma'rifati nihoyat qadrlanganini dalillaydi. Kuntug'dining taklifi bilan qnrindoshi oldiga borgan O'gdulmishga qarata ofiyat va qanoat timsoli O'zg'urmish uning o'z ilmi bilan elga nafi tegayotganini so'zlaydi. To'g'ri, garchi saroyda u biror rasmiy xizmatni bajarishga kirishmagan bo'lsa-da, O'zg'urmish o'zining manfaatli o'g'itlari bilan Kuntug'di elikka ko'maklashib turadi. "Qutadg'u bilig" axloqiy-ta'limiy yo'nalishga ega doston bo'lib, unda kishilar o'rtasidagi muomala-munosabat madaniyatining eng oddiy ko'rinishidan eng yuksak insoniy fazilatlari haqida fikr yuritiladi.

Dostonning bir necha bobi odob va axloq masalalariga bag'ishlangan. "Til ardami" (Til odobi) nomli 7-bob ham shular jumlasidandir. Unda shoir tilning, ya'ni so'zlashuvning fazilatlari va qusurlari haqida fikr yuritadi. Ijodkor o'z asarida tilni o'qish, bilim olish vositasi sifatida sharhlaydi. Til bilan inson ro'shnolikka chiqadi. Ko'p va behuda so'zlash esa inson uchun ziyrat emas. Ilohiy ne'mat bo'lgan so'zni har bir inson qadrlamog'i kerak. "Qutadg'u bilig"da yaxshi xislat va fazilatlarni ezgulik, salbiy illatlarni esa esizlik (yomonlik) deb atagan muallif jamiyat taraqqiyoti uchun komil inson, barkamol shaxs nihoyatda muhimligini teran idrok etadi. Shu bois shoir o'z asarida uylanish, bola tarbiyasi kabi mavzularga ham jiddiy e'tiborini qaratadi.

Asarda keltirilgan O'gdulmish bilan O'zg'urmish orasidagi munozara buning yorqin dalilidir. O'gdulmishning aqidasicha, dunyodan toq o'tish insonni bezamaydi. Jismoniy sog'lom unson (erkak va ayol) turmush qurib, farzand ko'rishi shart. Zero, bu o'z navbatida islomiy shariatning ham qat'iy talabidir. Dostonda O'zg'urmish uylanish, yaxshi farzand ko'rish afzalliklarini e'tirof etib, o'g'il-qizning fe'l-u matlabi yomon bo'lsa, buning oqibati yaxshilikdan darak bermasligini ta'kidlaydi.

Asarning boshqa o'rnida O'zg'urmish uylangan kishini kema minguvchiga o'xshatadi. O'g'il-qiz tug'lsa, kema sinib, unga minguvchi halokatga uchrashi tayin degan xulosaga keladi. Asardagi bunday ziddiyatli fikrlar kitobxonni mulohazaga chorlaydi. Doston xotimasida O'zg'urmish o'lim bilan olisha turib, uni ko'rishga kelgan qarindoshi O'gdulmishni tezda saroyga qaytishi, u o'sha yerda bo'lsa, xalqqa nafi ko'p tegishini aytishi kitobxonning bu qahramonga bo'lgan fikrini charxlaydi. Yusuf Xos Hojib bola tug'ilishi bilanoq uning tarbiyasi bilan shug'ullanilsa, farzandning odobi, axloqi, ta'lim-tarbiyasi risoladagidek bo'ladi, degan xulosaga keladi.

Go'zal va nafis nutq sezgisi hamda unga azaliy ixlosu e'tiqod an'anasining ibtidosi, ayniqsa, ko'hna Sharqda juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Donishmand Sharq bag'rida bundan besh ming yillar burun barpo bo'lgan eng "kekxa" muassasalardan bo'lmish ilk maktablarning bosh vazifalaridan biri ham bolani to'g'ri, aniq gapirish va yozishga o'rgatishdan iborat bo'lganligi, ayni vazifaning bizning kunlarimizga qadar ham o'sha mohiyatini yo'qotmay kelayotganligi har qanday jamiyat hayotida til va nutq nufuzining ne chog'li muhtasham o'rin tutishining shahodatidir.¹⁴

Yusuf Xos Hojib arab va fors-tojik adabiyotidan ham yaxshigina xabardor bo'lgan ijodkordir. "Qutadg'u bilig"da buyuk fois-tojik shoiri Firdavsiyning "Shohnoma" asari qahramonlaridan Faridun, Nushiravon, Afrosiyob, Zahhok, Rustam kabilar nomlarining uchrashi, shoirning bu doston bilan yaqindan tanishligi va undan ijodiy ta'sirlanganligini dalillaydi. Yana har ikkala asarning ham mutaqrrib bahrida bitilganligi fikrimizni yanada quvvatlantiradi.

"Qutadg'u bilig" yuksak badiiy ahamiyatga ega bo'lgan yirik hajmli ilk turkiy doston bo'lishi bilan bir qatorda, qoraxoniylar davri tarixi, etnografiyasi, madaniyati, tili va adabiyotini o'rganish uchun ham qimmatli adabiy manba hisoblanadi.

¹³ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 83 –bet.

¹⁴ Mahmudov Nizomiddin. O'qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2007. 5-bet.

Yusuf Xos Hojib zamonasining ulug' mutafakkiri sifatida davrining dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammolarini qalamga oladi. Buni dostonning qisqacha mazmunidan ham ilg'ash mumkin.

Kuntug'di ismli hukmdorning, shon shavkati, shuhrati yaqin va uzoq mamlakatlarga yetib boradi. Uning adolatli siyosatidan el mamnun edi. Oyto'ldi ismli g'oyatda barkamol donishmand, tadbirkor bir kishi Kuntug'di xizmatiga kirish istagi bilan uning poytaxtiga yo'l oladi. U musofirchilikda juda ko'p azob-uqubatlar chekadi, ayni choqda ko'ngliga yaqin yor-do'stlar orttiradi. Oyto'ldi Ko'samish (Istanilgan) ismli do'stining uyiga mehmon bo'lib, Kuntug'di saroyiga borishining sababini hikoya qiladi. Ko'samish do'stining bu istagiga hayrixohlik ko'rsatadi va uni Kuntug'dining xos hojibi bilan tanishtiradi. Shu tariqa, Oyto'ldi Kuntug'di bilan uchrashadi. Podsho Oyto'ldining suhbatini, fikrlarini yoqtirib qoladi, uni saroyida saqlashga qaror qiladi. Kuntug'di Oyto'ldini har taraflama sinab ko'radi va nihoyat uning saroydagi faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uzoq yillar podsho saroyida xizmat qilayotgan Oyto'ldining mansab-martabasi oshib boradi. Shu bois podsho uni vazir etib tayinlaydi hamda butun davlat ishlarini unga ishonib topshiradi: Oyto'ldi vazirligida el-yurt yashnaydi. Biroq o'z yurti, oilasini sog'ingan Oyto'ldi hukmdordan ruxsat olib, ona vataniga qaytadi va birmuncha vaqtdan keyin o'sha yerda vafot etadi.

Oyto'ldining O'gdulmish ismli o'g'li bor edi. Ota xastalanib qolgan kunlarida, yosh O'gdulmishga juda ko'p nasihatlar qiladi. Oyto'ldi pandiga, nasihatiga amal qilgan O'gdulmish Kuntug'di saroyiga yo'l oladi va podsho xizmatiga kiradi. O'gdulmish o'z aqli, zakovati hamda tadbirkorligi bilan otasi singari hukmdorning yaqin kishisiga aylanadi. Kuntug'di uni otasi o'rniga vazir etib tayinlaydi, davlatni idora qilish ishlari O'gdulmishga havola etiladi. O'gdulmish otasidan ham zakovatliroq, omilkor bo'lganligi bois el-yurti yashnatadi, boyitadi. Kuntug'di vaziridan juda mamnun bo'ladi. Kuntug'di va O'gdulmish o'rtasida turli mavzularga doir suhbat, munozaralar bo'lib o'tadi. Oqil kishilarning davlat ishlariga katta foydasi tegishiga amin bo'lgan Kuntug'di davlat ishlari tobora ortib borganligi bois O'gdulmishni huzuriga chorlab, unga ko'maklashadigan yetuk kishi zarurligini aytadi. O'gdulmish ishga munosib O'zg'urmish ismli qarindoshi bo'lib, nihoyatda komil va layoqatligi, biroq dunyo ishlarida uzlatga chekinib, toqqa chiqib ketganligini bayon qiladi. Hukmdor qanday qilib bo'lmasin, O'zg'urmishni saroyga olib kelishni O'gdulmishga topshiradi O'gdulmish O'zg'urmishning oldiga podshoning talabi bilan uch marta boradi. Ikki marta O'zg'urmish tanlagan yo'lidan qaytmasligi Podshoning davlati uchun naf keltiradigan biror fazilati yo'qligini aytib, Kuntug'dining taklifini rad etadi. Uchinchi marta podsho O'zg'urmishni xizmatiga emas, uni bir ko'rish, suhbat, o'gitlaridan bahramand bo'lish uchun saroyga chaqirayotganini, agar kelmasa o'zi uning oldiga borishini O'gdulmish orqali yetkazadi. O'zg'urmish shu choqqacha O'gdulmish o'z manfaatini ko'zlab uni saroyga taklif etganini, so'nggi da'vat esa bundan mustasno ekanligini so'zlaydi va saroyga borishga rozilik beradi. Podsho ularni yaxshi kutib oladi. Kuntug'di bilan O'zg'urmish o'rtasida turli mavzularda savol-javob, munozaralar bo'lib o'tadi. O'zg'urmish yana tog' tomon yo'l oladi...

Vaqt o'tishi bilan O'gdulmish ham keksayib qoladi. Uning ham qo'lga hassa oladigan fursat keladi. Endi qolgan umrini toat-ibodat hilan o'tkazib, oxiratni o'ylash ma'qulmi, yoki davlat ishlarini davom ettirish zarurmi, -deya o'ylab, maslahatlashish uchun O'zg'urmishga uchrashadi. O'zg'urmish umrni toat-ibodat bilan o'tkazish xayrli ekanligini so'zlab, unga davlat ishlarini davom ettirishni maslahat beradi. Oradan bir qancha vaqt o'tgach, O'zg'urmish xastalanib qoladi va vazirga xabar yuboradi. O'gdulmish qarindoshining oldiga keladi. Uning og'ir ahvoliga qayg'uradi. O'zg'urmish shunday ayanchli vaziyatda bo'lishiga qaramay, O'gdulmishni o'z ishini davom ettirish uchun saroyga qaytishini talab qiladi. O'gdulmish saroyga qaytadi...

O'zg'urmish og'ir kasallikdan keyin dunyodan o'tadi. O'gdulmish esa o'z faoliyatini davom ettiradi. Doston shu tarzda nihoyasiga yetadi. Dostonga murojaat qiladigan bo'lsak Oyto'ldining elikka (mansab, martaba ma'nosida) davlat sifatining ko'rsatishi, Kuntug'di elik Oyto'ldiga adl sifatini qanday ekanini aytish haqidagi boblarda xuddi shunday hodisani kuzatish mumkin. Bunda doston muallifning asardagi ramziy obrazlarni nomlashdan ko'zlagan asosiy

maqsadi, o'z ilg'or g'oyalarini targ'ib etishda ulardan foydalanishning mohiyatini to'g'ri ilg'aganligi sezilib turadi:

**Elik aydi uqtura munun erdamin,
Bu Aytoldi atin ne ul bu senin.**

**Naku-ul munun manisini ay mena,
Bilayin, uqayin, bu tayin sena.¹⁵**

Kuntug'di elik Oyto'ldining nuqson hamda kamchiliklarini anglaganini so'zlab, nega bu nom bilan atalishini so'raydi va uning ishonch hosil qilganligini aytadi. Bunday savol-javobning ikki taraflama bo'lib o'tganligi dostonida o'z ifodasini topgan. Dostonning keyingi bobida Oyto'ldi hukmdordan nomi nega "Kuntug'di" ekanining sababini surishtiradi. Bu savol-javob usuli G'.Akramov ta'kidlagan "qadimiy homiy xudo"larni mavzu va g'oyani ro'yobga chiqarish uchun qo'l kelganligidan yorqin dalolatdir.

Qadimiy kishilar uchun ilohiylashtirilgan samoviy jismlar ilk turk musulmon sulolasi-qoraxoniylar zamonasida yangi ma'no va talqinlar qo'llanganki, buni quyidagi parchada ham ravshan kuzatish mumkin:

**Bu Ayto'ldi aydi menin atimi,
Bo'gu menzatur ayqa qilqimi.**

**Bu ay tug'sa alinu edi az tug'ar,
Kuninga beduyur yuqaru aqar.**

**To'lun bo'lsa to'lsa ajunda yarur,
Ajun xalqi andin yaruqluq ho'lur.**

**Tugel bo'lsa ko'r ay bu ag'sa adiz
Yana erma to'rgur ketar ko'rk meniz.**

**Yaruqliqi eksur yana yo'q bo'lur
Tug'ar kecha azin yana o'q-to'lur.**

**Menin bu o'zumma bu yanglig' turur
Ara bar bo'lur-men ara yo'q bo'lur.¹⁶**

Parchada asar qahramoni Oyto'ldi oyga qiyoslanadi. Oy dastlab samoda juda kichkina bo'lib ko'rinadi. Kundan kunga to'lishib, yuqoriga ko'tariladi va to'lin oy qiyofasida olamni yoritadi. Jahon ahli undan ro'shnolik ko'radi. Muayyan muddatdan so'ng uning (oyning) ycmirilishi, kichrayishi, chiroyi ketib, nursizlanish jarayoni boshlanadi. Zikri o'tgan manzaralar turg'un emas, aylanishda, takrorlanishda davom etadi. Savol tug'iladi, nega shoir hammaga ma'lum bu hodisalarni hikoya qilayotir? "Qutadg'u bilig"da majoziylik baland. Shoir g'oyat teran falsafiy mushohada yuritadi, tabiiy jismlar va insonlar taqdiri o'rtasida yaqinlik, aloqadorlik tuyadi. Samoda kezib yurgan oyki, bir holatda turmas ekan, tabiatning mitti mo'jizaisi inson ham o'z qiyofasini o'zgartiradi, uning "to'lishgan", va "kichraygan", "nursizlangan"-davrlari bo'ladi. Bugungi navqiron yoshlikning ortida (erta tetapoya bo'lish jarayoni) bolalik pallasini eslatuvchi keksalikning turishi muqarrardir. Inson ana shu takrorlanuvchi tabiiy jarayonni mushohada

¹⁵ Vohidov R.J., Eshonqulov H.P. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi. 2006. 74-bet

¹⁶ Vohidov R.J., Eshonqulov H.P. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi. 2006. 75-bet

etmog'i, qarilik farog'atini umri bahoridayoq ta'min qilmog'i lozim. Quyosh ham samoviy sayyora, ammo u oyga o'xshamaydi. Uning holat-harakati, zoti va sifatleri o'zgarmasdir. Butun mulki borliq uning hayotbaxsh zarralariga ilhaq holatda harakat qiladi. Ayni tasvirda ham irfoniy-falsafiy mohiyat yashirin: Quyosh —mutlaq, azaliy va abadiy mo'jiza, Xudodir.

II-BOB. YUSUF XOS HOJIBNING NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN'ATI NAZARIYASIGA QO'SHGAN HISSASI

2.1. Dostonda notiqlik san'ati va xushmuomalilik xususidagi qarashlar.

Markaziy Osiyoda, xususan, hozirgi O'zbekiston xududida, nutq madaniyati va notiqlik san'ati o'z –o'zidan birdaniga vujudga kelgan emas. Uning chuqur tarixiy ildizlari va g'oyaviy manbalari mavjud bo'lib, qadimda voizlik san'atiga katta e'tibor berildi. "Va'z" so'zi arabcha targ'ib qilish, pand –nasihat degan ma'nolarni anglatadi; "Voiz" so'zi esa va'z aytuvchi, nutq so'zlovchi shaxs ma'nosini bildiradi. Voizlik san'ati tinglovchining, jamoaning ongiga, his – tuyg'usiga ta'sir etish mahorati bo'lib, hozirgi vaqtda u notiqlik san'ati deb yuritilmoqda. O'rta asr voizlik san'atida har bir so'z, tushuncha, ohangning ta'sirchanligiga erishish, muayyan bir fikr, mulohaza, hukm, g'oya, mafkura va xulosani o'z tinglovchilariga etkazish maqsadida riturika fani o'qitilgan.

G'arb olami iqtisodiyoti va texnikasi, texnologiya va samoviy kashfiyotlar davri bo'lmish XX asrdagi ruhshunoslikka oid ommabop risola muallifi Deyl Karnegining "Muomala sirlari" asari bilan Sharq O'rta asr musulmon uyg'onish davri, ilk turkiy adabiy obidasini qiyoslash, kitoblaridagi mushtarak nuqtalarni yonma-yon tahlil qilish mumkin. Deyl Karnegining birinchi qoidasida "Odamlar bilan doimo yaxshi munosabatda bo'ling"- deyiladi. Uning ochiq chehra bilan kutib olishlarini istasangiz, odamlar holidan xabar olib turishingiz lozimdir. U bu haqda yanada aniqroq tarzda shunday deydi: "Agar biz odamlarda yaxshi taassurot qoldirmoqchi bo'lsak va shu orqaligina ularni o'zimizga atayin qiziqtirishga intilsak, hech qachon samimiy do'sg topa olmaymiz. Yaxshisi, buning aksini qilish, ya'ni odamlar hayoti bilan qiziqishimiz kerak".¹⁷ D.Karnegi bu haqda mashhur Venalik psixolog Alfred Adlerdan iqtibos keltiradi: "O'z birodarlari bilan qiziqmaydigan inson hayotda eng katta qiyinchiliklarni boshidan kechiradi va atrofidagilarga eng katta zarar keltiradi. Xuddi mana shunga o'xshash odamlar orasida omadsizlar paydo bo'ladi." Karnegi o'zining mazkur tamoyilida odamlarga past nazar bilan qaramaslik va har bir ishga ezgu maqsad bilan kirishish lozimligiga alohida e'tibor beradi: "Biz kim bo'lishimizdan qat'iy nazar qassobmi, nonvoymi yoki taxtda o'tirgan shohmi, avvalo bizga maftun bo'lgan odamlarni seveylik, ularni yaxshi ko'raylik"¹⁸ – deydi.

Bobokalonimiz Yusuf Xos Hojib ham o'zining "Qutadgu bilig" asarining dastlabki boblaridanoq qarindosh va qardosh (do'st)lar bir-birlarining holidan doimo xabar olib turishlari kerakligini uqtiradi. Xususan, O'gdulmishning qarindoshi O'zgurmish holidan xabar olishi, Kuntug'di elig maktubini yetkazishi epizodlarida bu jihatga maxsus urg'u beriladi. Ma'lumki, zohidlikni ixtiyor etgan O'zg'urmish Kuntug'di eligning saroy xizmatiga chorlab yozgan maktubiga bir necha bor rad javobini beradi. Ammo nihoyat podsho Kuntug'di O'zgurmish huzuriga bir shohlik darajasida emas, balki oddiy bir inson sifatida borish, uning holidan xabar olish uchun borajagini aytganida, u podshoning avvalgi takliflariga ham rozi bo'ladi va o'zi saroyga qaytadi. "Qutadg'u bilig" asaridan bilim olish va har bir ishda ezgulik qilshi masalasi qizil ipdek tizilib o'tgan. Bu haqda jumladan shunday deyiladi:

Qali bolsa elgin butunqa uzun
Qamug` edguluk qil qilinchin sozun

¹⁷ Karnegi Deyl. Muomala sirlari. Toshkent.: Navro'z. 1992. 7-bet

¹⁸ Karnegi Deyl. Muomala sirlari. Toshkent.: Navro'z. 1992. 8-bet

Mazmuni:

Agar xalq ustidan qo`ling uzun bo`lsin desang,
Amalda ham, so`zda ham mutlaq ezgulik qil¹⁹.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadgu bilig" asarida markazlashgan, adolatli saltanat qurish uchun jamiyatning turli tabaqalariga ezgu munosabatda bo`lish, odamlar bilan samimiy munosabat o`rnatish asosiy maqsad qilingan. Deyl Karnegida esa, inson jamiyatda o`z o`rnini topishi, foyda keltiradigan ish bilan shug`ullanuvchi tadbirkor bo`lib yetishishi uchun do`st ortirishi lozimligi ko`zda tutiladi. Ammo har ikki holatda ham insonni baxtli qilish uchun ezgulik bosh maqsad bo`lib qolaveradi. Deyl Karnegining ikkinchi qoidasida "Tabassumni darig` tutmang", deyiladi. Bunda atrofingizda yaxshi taassurot qoldirishning oddiy usuli jilmayish ekanligi aytiladi. U bu haqida shunday deydi: "Odam jilmayishi orqali go`yoki" Siz menga yoqasiz. Siz meni baxtli qilayapsiz. Men Sizni ko`rishdan xursandman", deb gapirayotganday bo`ladi .. Nosamimiy kulgichi? Yo`q, bunday kulgi bizni hech ham alday olmaydi. Uning sun`iyligi shundoq ham bilinib turadi va undan darhol jahlimiz chiqishi aniq. Biz faqat ko`ngildan chiquvchi va yuraklarimizni yayratuvchi haqiqiy, bebaho kulgi haqida gapirayapmiz,"²⁰ - deydi. Karnegi Nyuyork shahridagi katta universal do`konning ishga yo`llash bo`limi mudiridan olgan ma'lumotlarga ko`ra, unga yuzlari xo`mrayib turuvchi falsafa doktoridan ko`ra maktabni hali tugallamagan bo`lsa ham, sehrli jilmaya olish xususiyatiga ega bo`lgan qizaloq afzalroq ekan.

Insonlarga samimiy munosabatda bo`lish, kulgi, tabassum bilan muvaffaqiyat qozonish "Qutadgu bilig"ning ham o`zak masalalari sirasiga kiradi. Yusuf Xos Hojib bu haqda, aniqrog`i o`zi to`g`risida jumladan shunday deydi:

Baqa ker kitabni bu tergen kishi,
Hunarlig` er ermish kishiler bashi.

Bu turlug fazayil uqushlar bila
Arasta ul ermish yurimish kule

Mazmuni:

Nazar solib ko`r, kitobni jam qilgan bu kishi,
(Barcha) kishilar sarvari bo`lmish hunarli erdir.

Bu turli fazilatlar, zakovatlar bilan,
U orastadir, kulib [ya'ni xurram] yurgandir²¹

Asar yetakchi qahramonlaridan davlat va qut-baraka ramzi bo`lmish Oyto`ldining ko`ngli va chehrasi ochiq bo`lganligi uchun ham saroy xizmatchilari Ersig va Hojiblar tomonidan samimiy kutib olinadi va bu xislatlar Kuntug`di eligga yetkaziladi. Natijada shoh unga kulib boqadi:

Neku ter eshit bu qutun qummish er
Qutn birle arzu tilek bulmish er

Kule baqsa begler kishike kezin
Ogi kenli tirlur kuvenur yezin

Mazmuni:

Baxti gurkiragan shodon kishi nima deydi, eshitgin,
Baxti tufayli orzu-tilaklariga yetishgan (kishi)

¹⁹ Yusuf Xos Hojib. Qutadgu`u bilig. Toshkent.: Fan. 1971. 95 –bet.

²⁰ Karnegi Deyl. Muomala sirlari. Toshkent.: Navro`z. 1992. 8-bet

²¹ Yusuf Xos Hojib. Qutadgu`u bilig. Toshkent.: Fan. 1971. 56 –bet.

Beglar kishiga (ko`zi bilan) kulib boqsa,
(Uning) xotiri va ko`ngli yashnaydi, o`zi quvonadi.²²

Yusuf Xos Hojib barchaga ochiq chehrali bo`lish, do`stlarga, qarindoshlarga kulib boqish va boshqalarni doimo sevib yashash lozimligini doimo uqtirib boradi:

Qadashqa yaqinqa yag`uqluq ula
Ulurqa kichigke sevug bol kule

Mazmuni:

Qarindoshlarga, yaqinlarga yaqinlik qil,
Uluglarga va kichiklarga kulib bokuvchi ochiq chehrali bo`l²³.

Kulgi, ochiq chehra, samimiy munosabat, ko`ngil ochiqligi, yuz ko`rki "Qutadg`u bilig"ning aksariyat qahramonlari tabiati, fe'l-atvoriga xos xususiyat. Ularning barchasi bilim tufayli, ustozlarning qimmatli o`gitlari natijasida ana shu darajaga erishadilar. Sobit e'tiqodlari bilan ezgulik yo`lidan og`maydilar va oxir-oqibat o`z maqsadlariga yetadilar.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg`u bilig" dostoni o`z zamonida nechog`lik ma`lum va mashhur ekanligi, o`z –o`zidan bu ma`lumotlar qayerdan olinganligi haqida tabiiy bir savol tug`iladi. Tadqiqotchilarning bergan ma`lumotlariga ko`ra, Yusuf Xos Hojib bir necha tillarda gaplasha olgan. Jumladan, professor B.To`xliyev bu haqida shunday deydi: "Yusufning arabcha, tojikcha, kitablar o`qush (ko`p), -deb ta`kidlashi bejiz emas. Ayrim hollarda "Neku ter eshitgil, tajik bilgasi" yohud "Bunga o`xshar edi tazi (arab)lar tili" deb yozishi uning bir necha tillarni bilganligidan dalolat beradi"<sup>24</sup>. Nutq madaniyatida, notiqlik san`atida so`z tanlash juda muhim. So`zning qudrati, ta`siri, aks ta`siri, oqibati-yu samarasi haqida hikmatli so`zlar o`zbek adabiyotida ko`pdur: so`zdan kuchliroq qurol yo`q; so`z inson qudratining qo`mondonidir; so`z notiqning zanglamas, doim keskir qurolidir. O`z o`rnida, vaqtida astoydil aytilgan oddiy so`z ham aksariyat hollarda yengilmas kuchga aylanadi; bunday so`z notiqning o`zini qiziqtirib, goho qizishtirib, faollashtirib yuborishi, tinglovchilarni nafisligi bilan mahliyo qilishi mumkin. so`zlarni sinchkovlik bilan tanlab, ulardan mohirona foydalanib ifodalangan har bir fikr, g`oya yoki ta`limot ta`sir miqyosi tugamaydigan kuchdir; uning kuchi nihoyasiz. So`z –goho hatarli qurol, chunki so`z yarasidan ko`ra tig` jarohatini davolash oson. So`z sehridan kuchliroq sehr yo`q; jonli, ya`ni hayotiy, ta`sirli, jozibali so`z mo`jizalar yaratishga qodir. So`z –buyuk kuch, chunki uning yordamida odamlarni birlashtirish ham, bir-biridan yuz ko`rmas qilib ham yuborish mumkin. So`z tufayli mehr qozonish yoki nafrat, adovatga yo`liqish ham mumkin; shu bois odamlarni bir –biridan mosuvo qiladigan so`zni aytishdan saqlanmoq lozim. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg`u bilig" asaridagi notiqlik san`ati va xushmuomalalilik xususidagi qarashlar dolzarbligi bugungi ilmiy adabiyotlar uchun ham dasturul amal bo`lib hizmat qilmoqda. Adibning nutq madaniyati va notiqlik san`ati nazariyasiga qo`shgan hissasi beqiyosdir.

2.2. "Til odobi" bobida nutq madaniyati haqida

"Qutadg`u bilig" axloqiy-ta`limiy yo`nalishga ega doston bo`lib, unda kishilar o`rtasidagi muomala-munosabat madaniyatining eng oddiy ko`rinishidan eng yuksak insoniy fazilatlar haqida fikr yuritiladi.

Dostonning bir necha bobi odob va axloq masalalariga bag`ishlangan. "Til ardami" (Til odobi) nomli 7-bob ham shular jumlasidandir. Unda shoir tilning, ya`ni so`zlashuvning fazilatlar va qusurlari haqida fikr yuritadi. Ijodkor o`z asarida tilni o`qish, bilim olish vositasi sifatida sharhlaydi. Til bilan inson ro`shnolikka chiqadi. Ko`p va behuda so`zlash esa inson uchun ziyrat emas. Ilohiy ne`mat bo`lgan so`zni har bir inson qadrlamog`i kerak. "Qutadg`u bilig"da yaxshi xislat va fazilatlarini ezgulik, salbiy illatlarni esa esizlik (yomonlik) deb atagan muallif jamiyat

²² Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 146-147 –betlar.

²³ Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 246-247 –betlar.

²⁴ To`xliyev B. Yusuf Xos Hojibning. "Qutadg`u bilig" asari. Toshkent: O`zbekiston. 1991. 4-bet.

taraqqiyoti uchun komil inson, barkamol shaxs nihoyatda muhimligini teran idrok etadi.

O`quv va bilimning tilmochi tarjimoni tildir. Kishiga rushnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qut-izzatni xam, obro`-e`tiborni ham kishi til orqali topadi. Agar tilga e`tibor bermasa, uni noo`rin qo`llasa odam boshining yorilish hech gap emas:

Til arslan turur ko`p eshikde yatur,
Aya evlug arsiq bashinni eyur.

Tilin emgemish er neku ter eshit,
Bu so`z ishke tutg`il o`zunge ish et.

Meni emgitur til edi og telim,
Bashim kesmesuni keseyin tilim.

So`zunni ko`dezgil bashin barmasun.
Tilinni kudezgil tishin sinmasun²⁵.

Mazmuni:
Til arslon misoli yotar qafasda,
Bexabar boshini u er nafasda.

Tilidan tutilgan ne deyar, eshit,
Amal qil bu so`zga o`zingga ish et.

Balo keltiradi boshga bu tilim,
Boshimni u kesmay, qilayin tilim.

So`zingni tiyib yur, boshing yormagin,
Tilingni tiyib tur, tishing sinmasin²⁶.

“Dono qardoshlarning tiliga quloq, sol. Ular:— ey til egasi. boshingni asra! — deyishgan. O`ziga ehsonlik tilagan har bir odam tilidan yaroqsiz so`zini chiqarmagin. Bilib so`zlangan so`z donolik sanaladi, Bilimsizning so`zi esa o`z boshiga yetishi mumkun”, - deb ta`kidlagan adib til odobi xususida qimmatli fikrlar aytadi:

Ortiq so`zda aslo bo`larmi foyda,
Ziyondan bo`lak yo`q so`z ortiq joyda.
Hech qachon ko`p gapirma. Juda oz so`zla. Tuman so`z tugunini bitta so`z bilan yozib yubor ya`ni oz so`zlarga ko`proq ma`no singdirish fayidali bo`lgin. Chunki:

Kishi so`z tufayli bo`ladi malik,
Ortiq, so`z bu boshni etadi egik.

Ortiqcha aytilgan so`z kishi ko`nliga malol. Ammo so`zlamaslik ham mumkin emas. Bu xolda soqov degan nomni orttirib olish mumkin. Shunga ko`ra o`rtacha yo`riq tutish lozim. Yo`riqni o`rtacha tutgan odam qut-iqbolga erishadi:

Tilingni avayla — omondir boshing.
So`zingni avayla — uzayar yoshing²⁷.

Tilning keltiradigan nafi juda ko`p. Ularni g`ofillik qilib qo`ldan chiqarmaslik kerak. Til goho maqtalsa, goho so`kishga mos bo`ladi. Shuning uchun qachon va qancha so`zlasang ham bilib gapir. Gapirgan gapirog ko`r odamlar uchun ko`z bo`lsin, deya ta`kidlagan adib nazar solib qarasang, bilimsiz odam ko`zi ko`r kishiga o`xshaydi, uning ko`zini ochish uchun bilimdan xassa berish lozimligini uqtiradi.

²⁵ Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 86–bet.

²⁶ Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig. Toshkent: Yulduzcha. 1990. 12 –bet.

²⁷ Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig. Toshkent: Yulduzcha. 1990. 13–bet.

Insonning soʻzlari ezgu boʻlsa, boshqalar yuragidan joy olib ulgursa, uning nomi mangu qolishi, tillardan-tillarga, dillardan-dillarga koʻchib yurishi dostonidagi bir necha baytlarda ifoda etiladi.

Inson ikki narsa tufayli qarilik nimaligini bilmaydi. Ularning biri xush qiliq, boshqasi — ezgu soʻzdir. Tugʻilgan odamdan qoladigan meros — soʻz. Uning oʻzi oʻlib ketadi, soʻzi esa mangu qoladi.

Olamdagi barcha soʻzlarni aql-idrok jamlolmaydi. Biroq kerakli soʻzlarni aytishi uchun kishini majburlash shart emas. Bu soʻzlar sendan keyingi avlodlarga moʻljallangan:

Senga soʻzladim men soʻzim, ey oʻgʻil.

Senga oʻgit berdim oʻzim, ey oʻgʻil.

Kumush qolsa meros boʻlib gar senga.

Uni tutmagin sen bu soʻzga teng-a!

Kumush ishga tushsa olqinar, tugar.

Soʻzim ishga tushga oltinlar toʻkar²⁸.

Kishidan kishiga qoladigan meros soʻz ekanligi, unga amal qilish, ming-ming foyda va naf keltirishi asarda oʻz ifodasini topgan.

Soʻzni bilimdon kishiga soʻzlash kerak. Bilimsizning tilini tushunish qiyin. Toʻgʻri, soʻzni soʻzlaganda har kim xatoga yoʻl qoʻyishi mumkin. Ammo bu xatoni donishmand hakimlar bartaraf etishadi. Soʻz tuyay burniga oʻxshash — unga jilov solsa boʻladi. Yoʻxud u tuyaning boʻyni kabi — yetovga yuraveradi, - deya taʼkidlagan adib dunyoda har bir soʻzini oʻylab, tushunib, toroziga solib gapirish kerakligini uqtiradi.

Dostonda Oytoʻldi eligga kattalar soʻramasdan turib soʻz boshlash odobsizlik ekanligini aytadi. Kimki boshqalarni oʻz huzuriga chorlar ekan, soʻzni dastlab chorlagan kishi boshlamogʻi joiz. Soʻramasdan oldin soʻz boshlash insoniy odatlarga zid boʻlib, bu hayvonlar qatoridagi ish bulur edi. Telba, tentak, aqli zaif boʻlganlarga boshqalarning savol va qiziqishlarini kutib turmasdan, gap boshlab yubora beradilar. Shuning uchun ham ular koʻp dakki eshitishadi:

Qizil til qiladi qisqa yosh seni,

Esonlik tilasang, pishid tut uni.

Nima der, eshitgin, tilin qisgan er,

Esonlikda yashar oʻzin bosgan er:

“Qora boshga yovuz yovdir qizil til,

Ne-ne boshni edi, yana egay, bil,

Boshingni oʻylasang, agragil tiling,

Istagan onida boshga yetar til²⁹”.

Ammo tirik kishining soʻzlamasdan yurishi, har doim jim bulishi mahol.

Koʻpchilik oldida mutlaqo ogʻiz ochmaslik ikki guruhga xos: ulardan biri tabiatan gapirish qobiliyatidan mahrum boʻlganlar, yaʼni soqov, gung (lol) kishilar. Boshqa esa bilimsiz kishilar hisoblanadi. Ular bilimi yetishmasligi tufayligina suhbatga aralasha olmaydi. Bilimi koʻp, har narsadan habardor odamlar esa yaxshi suhbatdoshga aylanadi.

Dono soʻzi goʻyo oqar suv erur,

Suv oqsa yer uzra koʻp neʼmat unur.

²⁸ Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig. Toshkent: Yulduzcha. 1990. 13–bet.

²⁹ Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig. Toshkent: Yulduzcha. 1990. 28–bet.

Shoni kamaymaydi dono o`rtoqning,
Suvi kamaymaydi zilol buloqning.

Donolar bo`ladi misoli chimzor:
Qayga oyoq qo`ysang, u yerda suv bor.

Bilimsizning ko`ngli qum erur go`yo,
Ut-o`lan o`smaydi kirsam ham daryo.

Kerak so`zning so`zlanmog`i shart. Chunki tilning zararidan qo`rqib yurilsa, ko`pgina foydali fikrlar ham pinhona qolib ketishi mumkin. Yomon va yaroqsiz so`zlar bilimsiz tilidagina chiqadi. Shuning uchun ham bilimsizlarni dono kishilar yilqi — hayvon qatoriga qo`shadi.

Johil qorni to`ygach, uning mashg`uloti ho`kizdek ag`anab yotish va behuda so`zlarni so`zlashdan iborat. Bilimli, donolar esa tanni ijtimoiy mehnat bilan “koyitib”, bilim bilan ovunadilar, buning hisobiga esa jon semiradi. “Jonning semirishi” bu o`rinda ma`naviy zavq, tuyg`ulari bilan chulg`anish degan ma`noga ega. Axir:

Tananing ulushi tomoqdan kirar,
Jon ulushi — so`z quloqdan kirar³⁰.

Aslida bilimning belgisi ham ikki xususiyatga tayanadi. Ular tufayli kishining yuzi yorug` bo`ladi. Kishi o`nta so`zni o`ylab, bittasini aytmog`i kerak. Tiyilgan, ya`ni aytilmagan so`z tufayli kishning ko`ngli to`q, dili — xotirjam.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” dostonida nutq odobi masalasiga keng o`rin ajratilgan. Noo`rin aytilgan so`z kishi ko`nglini xufton qiladi, obro`sin elga beradi. Dostonda ortiqcha so`z jonga tegadigan, kishini zeriktiradigan bo`lishi, so`ragandagina javob qaytarish lozimligi, ko`p eshitib, oz so`zlash fikrni kuchli mulohazalarga tayantirish zarurligi, uni qusurlardan xoli qilish haqida ko`p eslatib o`tilgan.

So`zni donodan eshitib, nodonlarga qo`llash lozimligi, ulug`lardan eghitilgan foydali so`zlarni kichiklarga yetkazmoq ham joiz ekanligi, hech kim ko`p so`zlab dono bo`lmaganligi misollar asosida izohlanadi.

Kamgaplik — donolik yo`lining boshlanishi. Sergap odam vaysaqi bo`lib qoladi, uning bilim o`rganishga qo`li tegmaydi kabi adib fikrlari bugungi kun notiqlik nazariyasida ham o`z isbotini topgan.

Biroq kishi so`zlamas ekan, uning bilimdon yoxud bilimsiz ekanligi ham ma`lum emas. Kishi uchun juda kerakli bo`lgan ikki a`zo bor: biri til, boshqasi — yurak. Til so`z uchun, yurak, ko`ngil esa shu so`zdan lazzatlanish uchun berilgan. Shu tufayli, to`g`ri, rost so`zni so`zlash uchun tilni tebratmoq, ya`ni harakatlantirmoq kerak. Egri, yaroqsiz so`zlarni tashqariga chiqargandan ko`ra tilning harakatsiz qolgani maqul ekanligini baytlarda uchratish mumkin.

Yusuf Xos Hojib dostonida shirin va ezga so`zlarni oqib turgan suvga o`xshatadi. So`zlarni yozuv orqali ifodalaganda chiroyli yozish lozimligini uqtiradi. Adib xabar berishning eng qulay usuli yozuv ekanligi barcha ezgu so`zlar yozuvda jamlanishini ta`kidlaydi. Agar bizgacha saqlanib qolgan maktub va yozuvlar bo`lmaganida bilim va hikmatlarni ilf –fanni ham anglab bo`lmas edi. Yozuv bo`lmasa oddiy so`zlarga hamma ham ishonavermaydi. Xususan, boshqalarga, uzoq ellarga xabarlash ehtiyoji tug`ilganda, bu ishni biror mulozim yozuvsiz eplay olmasligini adib ta`kidlab o`tadi. Salomlashish qoidasida ulug`lar kichikka salom berishi, kichiklar kamtarlik yo`lini tutib, ulug`lar so`zini doimo tinglashsa, ulug`likka yetishi haqida doston timsollarning o`zaro savol –javoblari orqali ifoda etib beriladi. Dostonning “Til odobi” bobidagi nutq madaniyati va so`zlashish odobi xususidagi qimmatli fikrlar bugungi yoshlarni barkamol avlod etib tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatiga ega.

³⁰ Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig. Toshkent: Yulduzcha. 1990. 30–bet.

III bob Nutq odobi masalasini yoritishda adib mahorati

3.1. Ijtimoiy guruh vakillarining o'zaro munosabati vositasida nutq odobi masalasining yoritilishi

“Qutadg'u bilig” dostonida nutq odobi masalasi haqidagi adib fikrlarini ijtimoiy guruh vakillarining o'zaro munosabati orqali ham his qilish mumkin. Asarning dastlabki boblarida Kuntug'di elig xizmatiga kirish, unda yaxshi taassurot qoldirish uchun Oyto'ldi Ersig va Hojiblarga yaxshi muomalada bo'ladi. Ular Oyto'ldi fazilatlarini podshoga yetkazganlaridan so'ng, Kuntug'di Oyto'ldini qabul qiladi. Oyto'ldi tabassum bilan podshoga ko'rinadi va uning ijobiy hislarini uyg'otadi. Undan so'ng esa, Oyto'ldi Kuntugdining chinakam suhbatdoshiga, dardkashiga aylanadi. U butun borlig'i bilan shohga xizmat qiladi, ulgurmaganlarini o'g'li O'gdulmish bajaradi. Asar personajlari oralarida bo'lib o'tgan har bir suhbatda o'zaro samimiylilik, hurmat, izzat-ikrom hukmronlik qiladi. Suhbatlarda ayniqsa, kishi ko'ngliga yo'l topish uchun sabr-qanoatli bo'lish, suhbatdoshini tinglay bilishga alohida ahamiyat beriladi. Yusuf Xos Hojib adolatli jamiyat qurish uchun mamlakatdagi turli tabaqalar orasidagi muomala odobini to'g'ri yo'lga qo'yish va u asosan ezgulik va adolatga asoslanishi lozimligini uqtiradi. Adolatli siyosat yurgizish bekning xalq oldidagi vazifalaridan biridir. Buning uchun hukmdor xalq uchun ishonchli, mustahkam va to'g'ri qonunlarni chiqarishi lozim. Bek o'z tasarrufida bo'lgan mamlakat yo'llarini qaroqchilar hamda harob qiluvchilardan tinch, osoyishta saqlamog'i lozim. Shundagina yurt sardori - bek o'z xalqi oldidagi vazifalarini ado etgan bo'ladi. Yusuf Xos Hojib “bek” deganda yurt podshosini nazarda tutadi va uning oldiga katta talablar qo'yadi.

Mamlakatda barqaror siyosat yurgizish uchun xalq ham o'z hukmdori oldidagi mas'uliyatni his etmog'i kerak. Bek ham raiyatdan uch narsani talab qilmoqqa haqli. Avvalo, bek tomonidan chiqarilgan yorliq (qonun)larni xalq hurmat qilib, uni darhol bajarmog'i lozim. Ikkinchisi esa soliqlarni saxiylik bilan davlat xazinasiga topshirish xalqdan talab etiladi. Hukmdor oldidagi xalqning uchinchi burchi esa, bekning dushmaniga uning xalqi dushman, do'stiga esa do'st bo'lishi kerak. Shu yo'sinda bekning xalq, raiyatning hukmdor oldidagi haqi o'talgan bo'ladi. Bu yo'l bek uchun ham raiyat uchun ham munosib yo'ldir. Yusuf Xos Hojibning bunday dono qarashlari qoraxoniylar davlatida barqaror tinchlik o'rnatishga erishish uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Shoir “Qutadg'u bilig” vositasida Tabg'achxonni xalqqa yaqinlashtirishga harakat qilgan. Uning bu sa'y-harakatlari turli ijtimoiy tabaqa haqidagi mulohazalarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir bekning yolg'iz o'zi mamlakatni boshqara olmasligini, buning uchun unga o'z ishlariga sadoqatli, halol, tadbirkor, donishmand kishilar bo'lishi kerakligini ta'kidlab, vazirdan tortib oshpazga qadar saroy ahllarining har birini alohida-alohida takidlaydi, ularning vazifa va burchlarini sanaydi. Jumladan, doston muallifi vazir va lashkarboshini davlat, elni boshqarishning ikki jilovi deb biladi. Shuningdek, boshqa ijtimoiy tabaqa vakillariga ham hurmat va ehtirom bilan o'z munosabatini asarda ifoda etadi.

Yusuf Xos Hojib xayrli ishlar elchilar tufayli sodir bo'lishini, barcha insonlarga ham, jonivorlarga ham rizq-ro'z ulashuvchi dehqonlar ekanligini, hunarmandlar esa eng kerakli kishilar hisoblanishini “Qutadg'u bilig”da badiiy ifodalaydi.

“Qutadg'u bilig” dostoni mulkdorlar uchun nizomnoma, siyosatnoma maqomidagi asar. Shu bois dostonning aksariyat boblari qoraxoniylar davrining nozik ijtimoiy-siyosiy masalalari badiiy talqiniga bag'ishlangan. Muallifning shunday mayli aql-idrok timsoli bo'lgan O'gdulmish timsoli misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Asarning faol obrazi O'gdulmish bilan Kuntug'di davlatning tuzilishi, hukmron tabaqa vakillari: bek, vazirlarning xulq-atvori, ularning raiyat bilan munosabatlariga doir savol-javoblari aks etgan boblarida muallifning g'oyaviy niyati ravshan namoyon bo'ladi. Shuningdek, Yusuf Xos Hojib turli-tuman kasb-hunar, amal martaba egalarining fazilatlarini haqida o'zining qimmatli fikr-mulohazalarini badiiy ifodalashga erishadi. Ular orasidagi o'zaro muomala munosabati haqida qimmatli fikrlar keltiradi. Bunday fikrlari orqali shoir davlatni adolat va aql bilan boshqarish lozim, degan xulosaga keladi. Yusuf Xos Hojibning bunday olijanob qarashlari nafaqat mutafakkir yashagan zamon uchun muhim, balki bugun uchun ham katta ahamiyat kasb etuvchi, manguликka dahldor durdona fikrlardir.

Yusuf Xos Hojibning aqidasi, bek — mamlakatning nufuzli hukmdori va u xudoning xohish-irodasi bilan shu mansab-martabaga munosib ko'riladi. Alloh kimga beklik ishini ravo ko'rsa, unga shu martabaga muvofiq idrok, farosat, ko'ngil beradi. Unga boshqalarda ko'rilmaydigan qobiliyat, yo'l-yo'riq, alohida iste'dod va ish yuritish uquvidan par-u qanot hadya etadi. Dostonda Kuntug'di elik va O'gdulmishning savol-javoblarida bekning dono, botir, sheryurak bo'lishi kerakligiga doir badiiy ishoralar shunday xulosaga kelish asosini beradi. Shoir tasavvurida bek bilimli, zakovatli, mulohazakor, to'g'ri so'z, tadbirkor, qat'iyatli bo'lishi lozim. Ijodkorning fikricha, bek va bilim so'zlari yonma-yon turishi zarur:

**Beg oti bilig birla bag'liq turur,
Bilig lom(i) katsa bag oti qalur.³¹**

Ko'rinadiki, shoir o'z mulohazalarini teran badiiy mushohada qilish, o'quvchilarga yetkazish maqsadida noan'anaviy tashbehtar izlaydi. Uning «bilim» va «beg» so'zlarini tanlashi zahirida ham o'shanday muddao yotadi. Darhaqiqat, bu ikkala so'z bir-biriga ancha yaqin (arabcha yozganda) va «bilig» so'zidan «lom» harfi olinsa «beg» so'zi qoladiki, shoir shu hodisani g'oyatda ta'sirchan ifodalashga muvaffaq bo'ladi. Shoirning fikricha, bek qanchalik bilimli, ma'rifatli bo'lsa, u olim va donishmandlarning qadriga yetadi. Shuningdek, asarda muallif hukmdorning raiyat oldidagi burch va vazifalari, ayni chog'da, xalqning o'z begi oldidagi mas'uliyati haqida ham g'oyatda qimmatli mulohazalar bayon etadi:

Raiyat haqi bar saningda ko'r, uch,
Bu haqni o'tagil, uzun qilma kuch.

Birisi elingda arig tut kumush,
Iyarni ko'dazgil, e bilgi o'gush.

Taqi bir budunqa to'ra ber ko'ni,
Ko'tar bir ekinin kuchin, ko'r ani.

Uchunchi emin tut qamug' yo'llarig',
Qarag'chig', sakarchig' aritg'il arig'.

O'tamish bo'lursan raiyat haqi ,
San otur haqing qul, ey elchi aqi.

Raiyat uza ul saning uch haqing,
Tilagu ulardin , san ach qulg'aqing³².

Mazmuni:
Raiyat haqi bor seningda, boq, uch,
Bu haqni o'tagil, hadeb qilma kuch.

Bin - tut elingda faqat sof kumush,
Kuzat sofligini , ey zako xulqi xush,

Biri - xalqqa odil siyosat yurit,
Hal et birga bir zulmini ezgu tut.

Uchunchi emin tut jami yo'llarin,
Qaroqchi va rahzanni qo'yma barin.

³¹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 386 –bet.

³² Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 388 –bet.

O'talغان bo'ladi raiyat haqi,
Va so'ng sen haqing so'r , ey elchi sahi.

Raiyatda bordir sening uch haqing,
Talab qil ulardin, sen och qulog'ing³³.

Keltirilgan fikrdan anglashiladiki, bekning raiyat oldida o'ta mas'uliyatli uchta burchi mavjuddir. Ulardan biri bek kumushning sofligini o'z qo'lida tutishi hamda xush xulqi va zakovati bilan uning tozaligini nazorat qilib turishi zarur. Bu bilan shoir pulning qiymatini ko'tarish, oltin va kumushning soxtalikdan himoya qilish hamda uni doimiy nazorat ostida tutish hukmdoring burchi ekanligini ta'kidlaydi.

Shoir davr ahlini moddiy-ijtimoiy imkoniyatlariga tayanib, mag'rurlanib ketmaslikka chaqiradi. Shuningdek, ishratparastlik, kek, gina, kudurat, adovat, nizo, xusumat, buzuqlik, mayparastlik, boylik va davlatga haddan tashqari berilishni qattiq qoralaydi. Ayniqsa, shoirning mayxo'rlikning yomon oqibatlarini xususidagi fikrlari diqqatga sazovordir:

Bo'r ichma, aya bo'rchi bo'g'zi quli,
Bo'r ichsa ochildi chig'ayliq yo'li.

Qara bo'rchi bo'ldi, nangi bo'ldi el,
Begi bo'rchi bo'lsa, qachon turg'a el³⁴.

Mazmuni:

May ichsa, ey mayxo'r va bo'g'zin quli,
May ichsang ochilgay gadoylik yo'li.

Avom bo'lsa mayxo'r, molin yel olar,
Begi bo'lsa mayxo'r, qachon el qolar³⁵.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarining maxsus bir bobida so'zlamoq yaxshiroqmi yoki jim turmoq, - degan savolga javob topishga harakat qiladi. Asar qahramonlarining aksariyati bir-birlari bilan olib borgan suhbatlarida mazkur bobda keltirilgan o'gitlarga amal qilishadi. Asarda jumladan shunday deyiladi:

Biliglig sezi sen eshit uznama
Aygshasa ashnu sezun sezleme³⁶

Mazmuni:

Sen bilimli so'zini eshit, bo'yin tovlama,
So'ramas (lari)dan oldin, so'z (lar)ingni so'zlama³⁷.

Shuningdek, "Qutadg'u bilig"da so'zni bilim bilan so'zlashga alohida ahamiyat qaratiladi:

Biligsiz tili tutchi beryushg kerek
Biliglig kishi tilqa erklig kerek³⁸

Mazmuni:

Bilimsizning tili doimo berk bo'lishi kerak,

³³ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 389 –bet.

³⁴ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 390 –bet.

³⁵ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 391 –bet.

³⁶ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 392 –bet.

³⁷ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 393 –bet.

³⁸ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 106 –bet.

Bilimlarning tili soʻzga erkin boʻlishi kerak³⁹.

Yuqoridagi qiyoslardan koʻrinib turibdiki, Yusuf Xos Hojib inson ruhiyati, uning suhbat davomida nimalarga ahamiyat berishi lozimligiga, qayerda soʻzlash, qayerda sukut saqlab, tinglash kerakligini goʻzal baytlar vositasida ifodalab bera olgan.

"Qutadgu bilig"ning "Oytoʻldining Kuntugʻdi eligga koʻrinishi" deb nomlanuvchi bobida sabr toʻgrisida shunday deyiladi:

Eyu kirmo ishqe sabr qil serin

Eve kilmish ishler yekunchi yarin⁴⁰

Mazmuni:

Ishga shoshilib kirishma, sabr kil, ehtiyot boʻl,

Shoshilib qilingan ishning oxiri voy va attangli⁴¹.

"Qutadgu bilig" dostonida ijtimoiy guruh vakillarining oʻzaro munosabati vositasida adib oʻz qarashlarini bayon etadi. Dostonda nutq odobi masalasiga alohida eʼtibor berilgan. Jumladan, elig va beklarning bir –biriga boʻlgan muomalasi ijtimoiy hayotda muhim oʻrin tutishi misollar vositasida tahlil etilgan. Oddiy xalq eligga yaxshi munosabatda boʻlsagina, ulugʻlikka erishishi taʼkidlangan. Insonlar oʻrtasidagi munosabatlar dostonidagi qahramonlarning oʻzaro dialoglarida ham aks etgan. Elchilar notiqlik sanʼatini yaxshi oʻzlashtirib, qaysi tilda soʻzlamochi boʻlsalar oʻsha tilni puxta, yaʼni mukammal, atroflicha va aniq bilishi, bilmaganlarini oʻrganishi zarurligi dostonida qayd etib oʻtilgan. Yusuf Xos Hojib taʼkidlaganidek, til boyligi va nutq madaniyati barcha davrlarda yonma –yon yashab kelgan; notiqlik oʻtmishdagi singari hozir ham maʼnaviy madaniyatning eng ishonchli tayanchlaridan biridir.

3.2. "Qutadgu bilig" asari ilmiy tahlilining nutq madaniyati va notiqlik sanʼatiga oid manbalar bilan aloqasi, oʻxshash va farqli jihatlari

Yusuf Xos Hojibning "Qutadgu bilig" dostonidagi nutq madaniyati haqidagi qarashlarga uygʻun holda keyingi davr adabiyotshunosligida ham muhim nazariy fikrlarni uchratish mumkin. Oʻzbek adabiy tili va nutq madaniyati buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy faoliyatida sayqal topgan. Oʻsha davrlardayoq uning oʻziga hos qoida, meʼyor, talab va xususiyatlari mavjud boʻlgan. Keyingi davrlarda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Uvaysiy, Nodira, Mashrab, Muqimiy kabi soʻz ustalarining asarlarida ilgarigi davr nutq madaniyati meʼyorlari, suxandonligi muayyan darajada aks etgan. IX asrdan boshlab soʻz ustalari voizlar deb atay boshlangan. Voiz soʻzi hatto ularning ismi shariflariga qoʻshib aytilgan va yozilgan. Markaziy Osiyo voizlik sanʼati xazinasiga dast avval Yusuf Xos Hojib (XI asr) Bahovuddin Valad (XII

³⁹ Yusuf Xos Hojib. Qutadgu bilig. Toshkent: Fan. 1971. 107 –bet.

⁴⁰ Yusuf Xos Hojib. Qutadgu bilig. Toshkent: Fan. 1971. 144 –bet.

⁴¹ Yusuf Xos Hojib. Qutadgu bilig. Toshkent: Fan. 1971. 145 –bet

asr), Jaloliddin Rumiy (XIII asr), Xusayn Voiz Koshifiy, Muin voiz (XV asr) kabi soʻz ustalari gʻoyat katta hissa qoʻshganlar. XII asrdan boshlab voizlik sanʼati nazariyasi va amaliyotini talqin va tavsif etadigan koʻplab ilmiy, tarixiy, uslubiy risolalar yozilgan. Bular qatoriga Muhammad Rafiq Voizning “Avbob ul-jinon” Voiz Qazviniyning “Zilolu maqol”, Voiz SHirvoniyning “Ahsan ul-ahodis”, Muhammad Voizning “Hidoyat ul-taqvim”, Quraysh Saidiyning “Anis ul-voizin”, Voiz Samarqandiyning “Ravozat ul -voizin”, Voiz Koshifiyning “Dah majlis”, “Mahzan ul-insho” kabi asarlari kiradi. Yusuf Xos Hojib notiqlik sanʼatini egallash insondan sabr – qanoatni talab etishi, har bir ishni muvaffaqiyatli chiqishini istagan kishi, albatta sabr qilish lozimligini taʼkidlaydi. U hayotdagi neʼmat va mehnat sohiblariga qarata shunday deydi:

E neʼmat idisi *shukr qil* egil

E mehnat idisi sabur qil egil⁴²

Mazmuni:

Ey neʼmat sohibi, shukr qil, yegin,

Ey mehnat sohibi, sabr qil, egil⁴³.

Mazkur baytda muallif sabr qilish bilan birga "egil" degan soʻzni bejiz qoʻllamagan.

Yusuf Xos Hojib ijodi amerikalik ruhshunos Deyl Karnegi ijodiga bevosita taʼsir etgan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asari kabi anʼanaviy “SHohlar oynasi” usulida bitilgan soʻz sanʼati namunalariga AQSH ning koʻpchilik ilmiy markazlari diqqat- eʼtibor qaratishgan. Zamonaviy siyosiy boshqaruv tizimida oʻrta asrlarga xos metodlardan ijobiy foydalanilgan. Al Gʻazzoliyning “SHahzodaga maslahatlar” kabi asari ham Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asariga hamohangdir. Roberd Denkoff “Qutadgʻu bilig”ning “SHohlar oynasi” anʼanalarida bitilgan boshqa asarlardan farq qiluvchi oʻziga xosliklari haqida toʻxtalar ekan, unda bir paytda 2 ta turli koʻrinishdagi donishmandlik xazinasi birlashtirilganini taʼkidlaydi. Bu Osiyo xududidagi turkiy hamda eron –islom anʼanalaridan iborat⁴⁴. Shuningdek, u ushbu tadqiqotida avtokratik davlat qurilishida shahzodalarga beriladigan pand –nasihatlar mavjud ekanligini hamda ular qadimgi Yaqin Sharq, Xitoy, Hindiston, qadimgi Yunon davlati hamda qisman Evropa tajribalari namunalariga ham asoslanishini alohida taʼkidlaydi. Deyl Karnegining “Muomala sirlari” kitobida odamlarga yoqishning olti usuli haqida fikr yuritiladi. Unda bayon qilingan qoidalarining har biriga Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida hamohang boʻla oladigan mushtaraklik bor. Maʼlumki, anʼanaviy “SHohlar oynasi” yoʻsinida oʻsha davrda bir qator asarlar yaratilgan. Jumladan, Kaykovusning “Qobusnoma” asarida ham Karnegi ijodiga asos boʻlgan jihatlar mavjud. Muomala odobi haqida Karnegi koʻproq “Qutadgʻu bilig”dagi oʻgitlarga tayanadi.

Deyl Karnegi "Odamlarni oʻziga moyil qilishga qanday qilib erishish toʻgʻrisida" deb nomlanuvchi beshinchi qoidasida mashhur psixolog Jeyms kuzatishlaridan misol keltiradi: "Inson tabiatining chuqur prinsiplaridan bittasi, boshqalar tomonidan tan olinishga boʻlgan xohishdir. Haqiqat shundaki, Siz bilan har bir uchrashgan odam oʻzini Sizdan ustun qoʻyishga harakat qiladi va bunda uning yuragiga yoʻl topishning eng toʻgʻri usuli diplomatlaracha noziklik bilan uning ustunligini tan olishdir. Ammo bu ishni shunday amalga oshiringki, u sizning samimiyligingizga aslo shubhalanmasin". Karnegi insoniyat tarixida oʻtgan donishmandlarning ana shu muammo haqidagi fikrlari toʻgʻrisida gapirar ekan, jumladan shunday deydi: "Donishmandlar ming yillar davomida odamlar oʻrtasidagi munosabatlar qoidalari haqida fikr yuritishgan. Ana shu fikrlardan bittasi hozirga qadar yashab keladi. Bu, boshqalar sizga qanday munosabatda boʻlishini istasangiz, siz ham ularga har doim shunday munosabatda boʻling, degan fikrdir"⁴⁵.

⁴² Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig. Toshkent: Fan. 1971. 924 –bet.

⁴³ Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig. Toshkent: Fan. 1971. 925 –bet.

⁴⁴ Denkoff Robert. Baxtu taxtga eltuvchi bilim. // Jahon adabiyoti.// Ingliz tilidan Sodiqov Z. Tarjimasi. Toshkent. 2005. 15 -bet

⁴⁵ Sodiqov Z. Qutadgʻu bilig tarjimalarining qiyosiy –tipologik tahlili. Toshkent: Fan. 2007. 35-bet.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida ham mazkur g'oya asar personajlarining har bir muloqotida ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari muallifning o'zi ham ushbu xislat eng avvalo hukmdorlarda bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlaydi:

Ulug' boldi beglar qutun belgulg,
Kichig tutsa konlin keturse ulug'⁴⁶

Ma'nosi:

Beglar davlati ziyoda bo'lib ulug'likka erishadilar,
Agar ular ko'ngillarini kichik tutib baxra olsalar⁴⁷.

Ushbu baytdaga birgina "Kichig tutsa ko'nlin", yani ko'ngilni kichik tutsa, degan o'gitning o'ziyoq, muomala odobi borasida Yusuf Xos Hojibning qarashlarini aniqlashtirib beradi. Bu esa, odamlarni o'ziga moyil qilishlikning yana bir muhim usulidir.

Deyl Karnegining "Odamlarga yoqishning olti qoidasi"dagi ushbu usulda suhbatdoshingiz qadr-qimmatini yuqori tutishingiz muomalangizdan bilinib tursin, deyiladi.

Mazkur bobda Deyl Karnegi o'zining yuqorida ilgari surgan usullarini birma-bir sanaydi. Bunda aytib o'tilgan qoidalar quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon rivojlantirib boriladi. Ya'ni, Deyl Karnegi dastlab kishi o'zini to'g'ri tuta bilishi, odamlarga yaxshi munosabatda bo'la olishi, buning uchun esa, samimiy tabassum qilishi, jilmayishi lozim bo'ladi. Undan keyin esa, suhbatdoshining ismi, qiziqishlaridan voqif bo'lishi hamda uning dardhasratlarini tinglay bilishi kerak. Buning uchun esa, sabr-toqat talab qilinadi. Suhbatdoshingizda yaxshi taassurot qoldirishning undan keyingi bosqichi uning qadr-qimmatini doimo o'zingiznikidan ustun qo'ya bilishingizdadir. Ana shundagina siz haqiqiy do'st orttirishingiz va hayotda ko'zlagan maqsadingizga yetishingiz mumkin. Aslida bunday yondoshuv Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida yanada go'zal ko'rinishda o'z ifodasini topgan. Asarning dastlabki boblarida Kuntug'di elig xizmatiga kirish, unda yaxshi taassurot qoldirish uchun Oyto'ldi Ersig va Hojiblarga yaxshi muomalada bo'ladi. Ular Oyto'ldi fazilatlarini podshoga yetkazganlaridan so'ng, Kuntug'di Oyto'ldini qabul qiladi. Oyto'ldi tabassum bilan podshoga ko'rinadi va uning ijobiy hislarini uyg'otadi. Undan so'ng esa, Oyto'ldi Kuntug'dining chinakam suhbatdoshiga, dardkashiga aylanadi. U butun borlig'i bilan shohga xizmat qiladi, ulgurmaganlarini o'g'li O'gdulmish bajaradi. Asar personajlari oralarida bo'lib o'tgan har bir suhbatda o'zaro samimiylilik, hurmat, izzat-ikrom hukmronlik qiladi. Suhbatlarda ayniqsa, kishi ko'ngliga yo'l topish uchun sabr-qanoatli bo'lish, suhbatdoshini tinglay bilishga alohida ahamiyat beriladi. Yusuf Xos Hojib adolatli jamiyat qurish uchun mamlakatdagi turli tabaqalar orasidagi muomala odobini to'g'ri yo'lga qo'yish va u asosan ezgulik va adolatga asoslanishi lozimligini uqtiradi. Deyl Karnegi esa, jamiyatda inson o'z o'rnini topishi, tadbirkorlik ishida omadga erishishi uchun do'st ortirishi lozimligini ta'kidlar ekan, buning uchun avvalo samimiylilik, yaxshilik bilan hamkorlarga, do'stlarga ega bo'lish kerakligini aytadi. Ammo ularning maqsadi bir. Bu ham bo'lsa, insonni baxtli qilishdir.

Yusuf Xos Xrijbning "Qutadg'u bilig"i bilan Deyl Karnegining "Muomala siri" deb ataluvchi ruhshunoslik (psixologiya)ga oid risolasi qiyosiy tahlilidan Sharq G'arb ilmiy-adabiy hamkorligi, o'zaro ta'sir va ilmiy-adabiy omuxtalikka oid yana bir jihat ko'zga tashlanadi. U ham bo'lsa, qadimgi Sharqda an'ana tusiga kirgan qoliplovchi hikoya (hikoya ichida hikoya) aytishning amerikalik olim tadqiqotlaridagi talqini masalasidir. Bu borada Ibn Sino va Aligyeri Dante, "Ming bir kecha" va "Dekameron" asarlarini qiyosiy tipologik asnoda tadqiq qilish misolida Sharq adabiyotining G'arb Uyg'onish davri adabiyotiga, qolaversa, jahon adabiyotining kelajagiga sezilarli ta'sir etganini ko'rsatib bergan o'zbek tarjimashunos, adabiyotshunos olimi Najmiddin Komilovning mana bu fikrlarini kechirish o'rinli: "Xullas, Sharq adabiyotida qadim zamonlardan davom etib kelayotgan o'ziga xos ijodiy uslub - hikoya ichida hikoya aytish, muayyan maqsadni ko'zlab, mazmunan o'zaro yaqin asarlarni bir ipga tizish bilan kitob tartib

⁴⁶ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent.: Fan. 1971. 352 –bet

⁴⁷ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent.: Fan. 1971. 353 –bet

berish avval Ispaniyada, keyinchalik Italiya, Fransiya va Angliyada ko'pgina ajoyib nasriy asarlarning yaratilishiga zamin hozirladi. Uyg'onish davri adiblari va undan keyingi Yevropa yozuvchilari ham Sharq syujetlaridan unumli foydalanganlar. Birgina Jovanni Bokkachchoning "Dekameron" asari misolida Sharq G'arb adabiy omuxtaligini o'rganish g'oyat muhimdir"⁴⁸. Professor Najmiddin Komilovning mazkur xulosasiga yana bir qo'shimcha qilish mumkin. Sharq mutafakkirlari asarlari, xususan, ularning didaktik ruhdagi ijod namunalari G'arb olamining nafaqat badiiy ijodiga, balki ilmiy tadqiqot ishlariga ham o'z ta'sirini o'tkaza olgan. Ayniqsa, buni amerikalik mashhur ruhshunos olim Deyl Karnegining psixologik tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. Uning muomala sirlari to'g'risidagi qoidalarini tushuntirishda har bir tamoyil bayoni davomida bir necha qiziqarli hikoyalar, ommabop voqealarni keltirib o'tishi ana shu sharqona qoliplovchi hokoyachiligining ilmiy-ijodiy o'zlashtirilishi deb tushunmoq lozim. Bu esa, mazkur masalani atroflicha tadqiq qilish zarurligini ko'rsatadi.

Karnegishunoslar Deyl Karnegi o'z tadqiqotlarini bevosita hayotdan olgan, degan aqidani ilgari suradilar. Haqiqatdan ham uning ijodida mashhur kishilar hayotidan olingan misollar ko'plab uchraydi. Ammo uning ruhxunoslikka oid tadqiqot tamoyillari hamda tahlil yo'nalishlari o'sha davrdagi AQSH hayotidan olingan misollardangina iborat, deyilsa, unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Chunki, u ilgari surgan g'oyalar, insonshunoslikka oid kuzatishlar u yashagan vaqtdan anchagina olis davrlardayoq, kurrai zaminning boshqa burchagida o'zgacharoq ko'rinishda bayon etib ulgurilgan edi. Muhimi, ularning har biri, avvalo o'z jamiyatiga xizmat qilgan. Deyl Karnegining ruhxunoslikka oid tadqiqotlari, bugungi kunda butun dunyoga mashhur bo'lgan ommabop risolalaridagi amerikacha ismlar, korxonalar va hududlarning g'arbona nomlari, bozor iqtisodiyotiga oid turli-tuman atamalar hamda ruhxunoslik fani talab qiladigan tahlil o'ziga xosliklarini hisobga olmaganda, jamiyatda mavjud bo'lgan muammolarni yechish uchun u tomondan ilgari surilgan tamoyillar, hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun tavsiya etilgan o'gitlar allaqachon O'rta asrlarda yashab ijod etgan bobokalonlarimiz, jumladan Yusuf Xos Hojib tomonidan o'zgacha shaklda (aruzning mutaqorib bahrida, doston ko'rinishida) qoyilmaqom qilib aytib ketilganligining guvohi bo'ldik.

To'g'ri, har bir davrning o'z talablari, o'z qarashlari, ta'bir joiz bo'lsa, o'z qo'shiqlari bo'ladi. Bugungi kunda kurrai zaminimizdagi zamonaviy kitobxon Yusuf Xos Hojibga nisbatan Deyl Karnegini ko'proq bilar, uning kitoblarini yaxshiroq mutolaa qilar. Chunki u bozor iqtisodiyoti olamiga mos. Aniqrog'i bozorbop. Ko'hna Sharq masnaviysini hazm qilish uchun esa, maxsus tayyorgarlik, yuksak did lozim. Ammo biz bir narsadan xursand bo'lishimiz kerak. Qiyosiy tadqiqotlar inkor qilib bo'lmaydigan darajada shuni ko'rsatmoqdaki, insoniyatning bugungi tafakkur olami, insonlararo samimiy munosabatlar tizimini shakllanishida Sharq mutafakkirlari, jumladan Yusuf Xos Hojibning ham o'z o'rne bor. Zero, ildizi baquvvat bo'lsa, mevasi ham shunchalik shirin va barakali bo'ladi, deb bejiz aytilmagan.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" dostonini donolar so'zidan ilhomlanib, ulardan ijodiy foydalanib vujudga keltirganligini e'tirof etadi. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, shoir turkiy og'zaki va yozma adabiyot an'analari juda yaxshi o'zlashtirgan, ulardan ta'sirlanib o'z davri uchun nihoyatda muhim va bugungi kunda ham ma'naviy-ma'rifiy qadr-qimmatga ega bo'lgan "Qutadg'u bilig" dostonini yozdi. Asarning deyarli har bir sahifasida irsoli masal badiiy san'atiga murojaat qilinishi, xalq maqol, masal va hikmatlarining satrlar mag'zida keltirishi shoirning og'zaki badiiy ijod xazinasidan pishiq xabardorligidan dalolat beradi. Shuningdek, dostonida Alp Er To'nganing qator fazilatlarini ta'riflanib, u haqda qiziqarli ma'lumotlar keltiriladiki, bu ijodkorning Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari tarkibida kelgan parchalar bilan tanish bo'lganligi va undan ilhomlangani xususida dadil gapirish huquqini beradi. Ijodkorning dostonida juda ko'p badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanganligini kuzatish mumkin. Jumladan, quyidagi baytda bahor kelishini yuksak ehtiros bilan tasvirlash uchun shoir tashbehni ilmi nujumdan tanlab, nozik mahorat ko'rsatadi.

Yashiq yandi bo'lg'ay yana o'rnika ,

⁴⁸ Komilov N. Ibn Sino va Dante. Toshkent.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at. 1983. 188-bet.

Mazmuni:

Quyosh qaytdi, yana o'z o'rniga keladi,

Baliq quyrug'idan Qo'zi burniga ko'chadi.

(Ya'ni quyosh hut burjidan hamal burjiga ko'chadi). Ko'rinadiki, shoir quyoshning hut burjini tark etib, hamal burjiga ko'chishi, ya'ni Bahor, Navro'z bayramining kirib kelishini tashxis san'ati vositasida yuksak ijodkorona mahorat bilan badiiy tasvirlaydi. Doston aruzning mutaqoribi musammani solim va undan far'iy (hosila) bo'lgan mutaqoribi musammani mahzuf (tushirilgan sakkizlik mutaqorib) hamda mutaqoribi musammani maqsur (qisqartirilgan, qusurli sakkizlik mutaqorib) bahrida yozilgan, "Qutadg'u bilig"ning 71- va 72-boblari, ya'ni ikki qasida va bir to'rtligi mutaqoribi musammani solim bahrida, qolganlari esa mutaqoribi musammani mahzuf va mutaqoribi musammani maqsurda bitilgan. Bu vazn dostonning deyarli barcha baytlarining ohangdor va ta'sirchan chiqishini ta'min etgan.

"Qutadg'u bilig" dostonida adolat timsoli bo'lgan hukmdorni nomlashda "Quyosh", davlat timsoli vazirni ifodalashda esa "Oy" asos qilib olinadi. Shoir Quyosh va Oyning uchrashib qolishi bilan bog'liq qadimiy mifologik afsonalarga murojaat etadi va ularni yangi talqinda o'z dostonida qo'llaydi. Bu hodisani "assotsiatsiya" deb nomlagan polklorshunos G'.Akramov ruhshunoslik fani yutuqlariga asoslanib, uni turli tuman harakat, taassurot yoki harflar, so'zlar va fikrlar o'rtasida paydo bo'ladigan bog'lanishlar tarzida sharhlaydi. Assotsiatsiya tor ma'noda murakkab metaforalar shaklida namoyon bo'lsa, keng ma'noda, tasavvurda mavjud hol-hodisalarni (mif voqeligi, epos voqeligi, tarixiy sharoit voqeligi va boshqalar) muayyan sharoitga xizmat qildirishdir. Olimning fikricha, "Qutadglu bilig" turkiy mifning ramziy modeli, g'oya va obrazlarini assotsiatsiyada qilib, shu hodisaga murojaat etilgan birinchi asardir. G'.Akramov muallif uslubini, maqsadini teran ilg'agan holda quyidagilarni yozadi: "Qadimiy homiy xudolar «Qutadg'u bilig»dagi bosh qahramonlarda ilgari surilgan ma'no va g'oya bilan g'oyaviy-ramziy assotsiatsiya uyg'unlashadi. Yusuf Xos Hojib mif arsenaliga ijodiy yondashib, uni o'z davri g'oyalariga bo'ysundiradi. Hukmdor Kuntug'di ilm-ma'rifat homiysi, odil; Oyto'ldi uning huzuriga keladi. Kun va Oy haqidagi qadimgi mifologik sujet model muallif talqini uchun imkoniyat ochib beradi"⁵⁰

Allohda mujassam notakror sifat va fazilatlar Yusuf Xos Hojib uchun ham intilish mazharidir. Shundan bo'lsa kerak, shoir o'zining majoziy va suyukli qahramonlarida ularning inishini orzu qiladi. Saroy va davlatdorlikning sir-u asroridan voqif muallif uchun adolatdan yuksak orzu yo'q. Quyosh—Alloh, Quyosh—adolat, shoir tasvirida yonma-yon turadi.

Yusuf Xos Hojib Oy haqida fikr yuritganda ham: "Ajun andin yoruqlik bo'lur",-deya qayd etadi. Ammo oy hamma ko'rinishida ham birday «ajun»ni "yaru"ta olmaydi. Buning uchun oyning "to'lin bo'l"mog'i talab etiladi. Quyoshda esa bunday o'zgaruvchanlik yo'q. Ana shularga ko'ra, Kuntug'di adolatli hukmdor, Oyto'ldi dono vazir maqomida go'zal badiiy tasvirini topadi.

Yusuf Xos Hojib "Qutadgu bilig" dostonini yozar ekan, avvalo markazlashgan davlatni barpo etish, tavg'achxon va ilekxonlar o'rtasidagi ixtiloflarni tugatish g'oyasini badiiy ifodalashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Shu bois adib didaktik mazmunga ega bo'lgan bu asarda davlatni idora qilish usullari, jamiyatdagi turli toifa, tabaqa, ijtimoiy guruh vakillarining, jumladan, tavg'achxon va ilekxonlarning fe'l – atvori, davlat qurilishi, ijtimoiy tabaqa vakillarining jamiyatdagi o'rni kabi siyosiy- iqtisodiy, ma'naviy –ma'rifiy, axloqiy - ta'limiy masalalarni yoritishga alohida ahamiyatga ega.

Haqiqatdan ham, XI asrda Markaziy Osiyodagi Qoraxoniylar saltanati hukmronligi davrida yashab ijod etgan Yusuf Xos Hojib bilan XX asr okean ortida, Amerika Qo'shma Shtatlarida o'zining ruhshunoslikka oid tadqiqotlari bilan mashxur bo'lgan Deyl Karnegi bir-birlaridan ham davriy, ham xududiy jihatdan anchagina yiroqdirlar. Biri O'rta asr Sharq Uyg'onish davri mutafakkiri. Ikkinchisi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda psixologik

⁴⁹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Fan. 1971. 80–bet

⁵⁰ Akramov G'. Mif va yozma adabiyot munosabatlariga doir. «O'zbek tili va adabiyoti» 1996 yil, 5-son, 56-bet

tadqiqotlar bilan shug'ullangan va ko'plab ommabop asarlar yaratgan olim. Ammo ushbu ikki alloma o'zlarining insoniyat hamda jamiyatga bo'lgan munosabatlari, xususan, hayotdagi qiyinchiliklarni yengish tamoyillari tavsifi bilan o'zaro juda yaqin turadilar. AQSH Origona shtati Portland shahridagi Rid Kolleji profeyesori, siyosatshunoslik fanlari doktori Darius Rejali o'zining "Shahzodalar, malikalar va mamlakat fuqarolari oynasi" nomli risolasida "Qutadg'u bilig"ni mazkur universitet talabalariga maxsus kurs sifatida o'tilishini e'tirof etadi. Lekin eng muhimi, u mazkur asarni jahon adabiyotidagi "Shohlar oynasi" janrida bitilgan asarlarning eng muhim namunasi sifatida baholab, uning "Shohlar oynasi"ning modern (zamonaviy) davrining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etganligini e'tirof etadi. Bunday asarlar sirasiga u avvalo Deyl Karnegining "Qanday qilib muvaffaqiyat qozonish va do'stlar orttirish mumkin" asarini kiritadi. Bu esa, o'z navbatida D.Karnegi ijodida "Qutadg'u bilig"ning sintezi masalasini tadqiq qilish vazifasini qo'yadi. Deyl Karnegining "Muomala sirlari" kitobida odamlarga yoqishning olti usuli haqida fikr yuritiladi. Unda bayon qilingan qoidalarining har birida Yusuf Xos Hojibning "Qutadgu bilig" asariga hamohang bo'la oladigan mushtaraklik bor.

XULOSA.

Bitiruv-malakaviy ishni yozish davomida quyidagicha umumiy xulosaga kelish mumkin. XI-asrda yaratilgan "Qutadg'u bilig" asari shu davrdagi davlatni idora qilish usuli, siyosati, qonun- qoidalar, shuningdek xalqning rasmi odatlarini, axloq prinsiplarini o'zida mujassamlashtirgan nizomnoma, qomus sifatida maydonga kelgan. Asardagi to'rt qahramon o'rtasida bo'lib o'tadigan savol- javob, munozaralar jarayonida avom xalqdan tortib qoraxoniylar saltanatining eng oliy daraja hokimi eliggacha bo'lgan oralig'dagi barcha tabaqa va toifalarning axloq, odob, xatti- harakat, o'zaro munosabat va nutq odobi haqida bahs boradi. Shuning uchun ham bu asar pand-nasihat, ta'lim-tarbiya ruhi bilan sug'orilgan, didaktik asardir. Agar har kim ushbu kitobda tilga olingan xislatlarga, fazilatlarga ega bo'lsa, undagi pand-nasihat, yo'l-yo'riqlarga amal qilib ish ko'rsa, baxt-saodat unga yor bo'ladi. Mana shunday qimmatli asar mavjudligi haqidagi dastlabki xabar XIX- asrning birinchi choragida paydo bo'ldi. Bu asarning hijriy 843 (1439) yilda Hirotda uyg'ur yozuvi bilan Hasan Qara Sayil Shams tomonidan ko'chirilgan nusxasi Turkiyaning Tugot shahriga, bu yerdan esa hijriy 879 (1474) yilda Abdurazzoq Shayxzoda baxshi uchun Fanari o'g'li Kadi Ali tomonidan Istambulga keltirilgan. Uni mashhur tarixchi va sharqshunos Xammer Purgstall Istambulda sotib olib, Vena saroy kutubxonasiga keltiradi. Shundan so'ng bu asar haqidagi birinchi xabar va uning ba'zi namunalari 1823-yilda fransuz sharqshunosi Jaubert Amedee tomonidan nashr etilgan.

1870-yilda esa venger olimi Vamberi "Qutadg'u bilig"ning eng muhim qismlarini "Uyg'ur tili obidalar" va "Qutadg'u bilig" nomi bilan nashr qildi va nemis tilidagi tarjimasini berdi. 1890-yildan boshlab esa bu asarni mashhur rus sharqshunos olimi Radlov tekshira boshladi. 1896-yilda kitobning arab yozuvi bilan ko'chirilgan ikkinchi nusxasi Qohirada topildi. 1890-yilda Radlov uyg'ur yozuvi bilan ko'chirilgan Vena nusxasining faksimilesini, 1891-yilda shu faksimilesining tekstini manjur yozuvi bilan nashr qildirgan edi. Qohira nusxasidan ko'chirma olgach, u ikki nusxani solishtirish imkoniyatiga ega bo'ldi va 1910-yilda "Qutadg'u bilig"ning transkripsiyasi bilan nemis tiliga qilingan mukammal tarjimasini nashr ettirdi. Nihoyat "Qutadg'u bilig"ning arab yozuvi bilan ko'chirilgan uchinchi nusxasi haqidagi dastlabki malumot 1914-yilda e'lon qilindi. Sharqshunos olim Valizoda 1913-yilning kuzida o'z shaxsiy ishi bilan Qo'qonga safarga o'tlanadi va mazkur safarida Qozon universiteti qoshidagi arxeologiya, tarix va etnografiya jamiyati tomonidan Sharq qo'lyozmalari haqida ma'lumot to'plash topshirig'ini oladi. U 1914-yil 20- arrela Farg'ona ekspeditsiyasi haqida mazkur jamiyatga qilgan hisobot ma'ruzasida namanganlik Muhammadhoji Eshon Lolaresh ismli kishining shaxsiy kutubxonasida "Qutadg'u bilig"ning arab alifbesi bilan yozilgan nusxasi mavjud ekanligi haqidagi xabarni aytgan. Bu esa "Qutadg'u bilig"ning Namangan nusxasi haqidagi dastlabki ma'lumot edi. Bu xabar e'lon qilinganidan so'ng o'zbek olimi Fitrat 1924-yilda Muhammadhoji Eshon Lolareshdan mazkur nusxani olishga miyassar bo'ladi va shu yilning o'zidayoq bu nusxani Toshkent asosiy kutubxonasiga keltiradi. Oradan bir yil o'tgach, "Maorif va o'qitguvchi" jurnalida "Qutadg'u bilig"ning Namangan nusxasi haqida Fitratning

maqolasi bosilib chiqadi. 1928-yilda esa u bu asarning ayrim parchalarini izohlar bilan nashr qiladi. Umuman , “Qutadg`u bilig” turkshunos olimlarning diqqatlarini o`ziga jalb qilgan edi. Jumladan, bu asarning til xususiyatlari, vazn va qofiya usullari, til va fonetik sutrukturasi haqida ilmiy ishlar qilingan.

“Qutadg`u bilig”ni o`rganishda A.A.Valitovanning ilmiy ishlari diqqatga sazovordir. Birinchi bo`lib bu asarni boy bir tarixiy manbaa sifatida o`rganish ishini boshlab bergan A.A.Valitova bu sohada beqiyos yutuqlarni qo`lga kiritgan. A.A.Valitovanning tekshirishlari turkshunoslikka qo`shilgan katta hissadir. “O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi”da “Qutadg`u bilig”ning ayrim parchalari va lug`atlarining berilishi bugungi kunda bu asarni o`rganishda yana ilgariga qarab qo`yilgan dadil qadam hisoblanadi. Shuni ta`kidlab o`tish kerakki, “Qutadg`u bilig” haqida qanchalik ko`p ilmiy ishlar qilingan bo`lishiga qaramay hali turli masalalar sohasida ko`pgina ilmiy izlanishlar qilish mumkin. Bitiruv malakaviy-ishimizda Yusuf Xos Hojibning notiqlik san`ati va nutq odobi haqidagi qarashlari tahlil doirasiga tortildi. Bu borada quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Asar axloqiy- ta`limiy, pand nasihat ruhida yaratilgan bo`lib, asarda XI-asr qoraxoniylar saltanatining eng yuksakka ko`tarilgan davridagi ijtimoiy-siyosiy voqealarini to`rt qahramon munozarasi, savol- javobi jarayonida yoritib berilgan.
2. “Qutadg`u bilig” sharqning yirik epik asarlari uchun qabul qilingan va Sharq nazmi aruzining eng ohangdori hisoblanib, “jangovar o`lchov” deb nom olgan mutaqorib bahrida yozilgan. Bu vaznda Firdavsiyning “Shohnoma” asari ham yaratilgan. “Qutadg`u bilig” asari G`arb adabiyotida an`anaga aylangan “Shohlar oynasi” adabiy janri taraqqiyotiga muhim hissa qo`shdi.
3. Dostonda bilim olish va har bir ishda ezgulik qilishga doir fikrlar badiiy tasvir vositalari asosida bayon etilgan.
4. Yusuf Xos Hojib “Qutadg`u bilig”da inson ruhiyati, uning suhbat davomida nimalarga ahamiyat berishi lozimligi, qayerda so`zlash, qayerda sukut saqlab tinglash kerakligini go`zal baytlar vositasida ifodalab bera olgan.
5. Oradan bir qancha vaqt o`tishiga qaramay, adib qarashlari bugungi zamonaviy hayotda ham barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.
6. Yusuf Xos Hojib insonlarni bilim va zakovat egasi bo`lishga chaqiradi. Zero, bilim va zakovat kishilarni g`aflatdan uyg`otishini, barcha orzu tilaklarga, ulug`likka yetkazishini misollar asosida izohlaydi
7. Insonlarni o`zaro muloqot davomida egallashi mumkin bo`lgan muomala odobi borasida fikr bildirgan Yusuf Xos Hojibning bir qancha hikmatomuz baytlari bugungi kunda ham o`z qiymatini yo`qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

I. Ijtimoiy –siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma`naviyat. Toshkent:. O`zbekiston. 1994. –B. 118.
2. Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent:. O`zbekiston. 1998.-B.688.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. Toshkent:. Sharq. 1998. 3-bet.
4. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. Toshkent:. O`zbekiston. Asarlar.7-tom. 1999.- B. 351.
5. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. Toshkent:. Yangi asr

avlodi. 2002.-B. 192.

6. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch. Toshkent:. Ma`naviyat. 2008.-B.176.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. Toshkent:. O`zbekiston. 2009.-B. 56
8. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chaqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent:. O`zbekiston.2010.-B. 56.
9. Karimov I. O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so`zi./O`zbekiston ovozi/ 2010. 1-sentabr.
10. Karimov I. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo`lini izchil davom ettirish taraqqiyotimizning muhim omilidir. /Ishonch/ 2010.8-dekabr.
11. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. /Xalq so`zi/ 2011. 22- yanvar

II. Badiiy adabiyotlar:

12. Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig. Toshkent:. Fan. 1971.-B.964.
13. Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig. Toshkent:. Yulduzcha. 1990.-B.192.

III. Ilmiy- nazariy adabiyotlar.

14. Adizova Iqboloy. So`zumni o`qub anglag`ay sen o`zumni. Toshkent:. G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2008.-B.136.
15. Adizova Iqboloy. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent:. Fan. 2009.-B.248.
16. Hasanov B. Qo`lyozma lug`atlar tavsifi. Toshkent:. //Adabiy meros//. 1980.3-son.
17. Hasanov B. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug`at. Toshkent:. Fan. 1993.-B.372.
18. Hojiahmedov A. She`riy san`atlar va mumtoz qofiya. Toshkent:. Sharq.1998. –B. 160.
19. Hojiahmedov A. She`r san`atlarini bilasizmi?. Toshkent:. Sharq.2001.-B.96.
20. Haqqulov I. E`tiqod va ijod. Toshkent:. Fan.2007.-B. 248
21. Homidiy Homidjon. “Avesto”dan “Shohnoma”gacha. Toshkent:. Sharq.2007.-B.320.
22. Husanboyeva Qunduzxon. Adabiyot- ma`naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. Toshkent:. A. Navoiy nomidagi O`zbekiston milliy kutubxonasi.2009. –B.366.
23. Inomxo`javey S. O`tmish sharq notiqligi. Toshkent:.O`zbekiston. 1972.-B. 40.
24. Islom tasavvufi manbalari. Toshkent:. O`qituvchi. 2005. –B. 400.
25. Komilov N. Tasavvuf . Toshkent:. Movarounnahr. O`zbekiston. 2009. –B.448.
26. Lapasov J. Mumtoz adabiy asarlar o`quv lug`ati. Toshkent:. O`qituvchi. 1994.-B. 272.
27. Mahmudov Nizomiddin. O`qtuvchi nutqi madaniyati. Toshkent:. A. Navoiy nomidagi O`zbekiston milliy kutubxonasi. 2007.-B. 186.
28. Ortiqov Abdurahmon. Ortiqov Abdug`affor. Nutq madaniyati va notqlik san`ati. Toshkent:. Dono-hamro. 2002.-B. 80.
29. Orzibekov R. O`zbek adabiyoti tarixi. Toshkent:. O`zbekiston Yozuvchilar uyishmasi Adabiyot jamg`armasi. 2006. –B. 272.
30. Qur`oni Karim. Toshkent:. Movarounnahr. 1992.-B. 406.
31. Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug`ati. Toshkent:. Akademnashr. 2010. –B. 397.
32. Rafiddinov S. Qissai Mashrab. Toshkent:. Yozuvchi. 1992.-B. 172.
33. Rafiddinov S.Majoz va haqiqat.Toshkent:. Fan. 1995.-B 160.
34. Sapoyev R. Avezmetov Sh. O`zbek tilidagi arabcha va forsha so`zlar lug`ati. Toshkent:. O`qituvchi. 1996.- B. 192.
35. Sodiqov Zohidjon. “Qutadg`u bilig ” tarjimalarining qiyosiy-tipologik tahlili. Toshkent:.Fan. 2007.-B.172.
36. Vohidov R.J, Eshonqulov N.R. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. I,II-qism. Toshkent:. O`zbekiston Yozuvchilar uyishmasi. 2006.-B.200.

Internet adabiyotlari :

- 37. [www.ecoform. sk. uz](http://www.ecoform.sk.uz)
- 38. www. Istedod.uz
- 39. www. Ziyonet. uz
- 40. www. books.ru